

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

TARIX TA'LIM YO'NALIS'HI

«O'ZBEKISTON TARIXI» KAFEDRASI

«Temir Tuzuklari» da davlat boshqaruvi masalasi»

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Eshmamatov Ulug'bek

Ilmiy rahbar: Dots. Quraxmedov A.

Malakaviy bitiruv ishi “O'zbekiston tarixi” kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2017 yil _____ majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya yetildi. (bayonnoma №_____).

Kafedra mudiri:

dos.R.Sh.Holiqulov

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2017 yil _____ iyundagi majlisida himoya qilindi va _____foizga baholandi (bayonnoma №_____)

YaDAK raisi:

A'zolari:

Samarqand-2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	
I-BOB. AMIR TEMUR DAVRI DAVLAT BOSHQARUV ASOSLARI.....	
I.1 .Amir Temur davri davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari.....	
I.2.Amir Temur davri ijtimoiy tizimi.....	
I.3.Amir Temur - davlat boshlig'i.....	
II BOB. "TEMUR TUZUKLARI"NING MANBA SIFATIDAGI O'RNI VA O'RGANILISHI.....	
II.1. "Temur tuzuklari" davlatchilik tarixini o'rganishda muhim manba sifatida.....	
II.2. "Temur tuzuklari"ning o'rganilish tarixi.....	
III. BOB AMIR TEMURNING TUZUKLARI MAMLAKATIMIZDA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA.....	
III.1. "Temur tuzuklari" – milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi.....	
III.2 .«Temur tuzuklari» - adolatli hamda kuchli davlat barpo etishdagi muhim qonun-qoidalar sifatida.....	
XULOSA.....	
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	

KIRISH

Mustaqillik milliy o'zligimizni anglash imkoniyatini yaratdi. Istiqlol yillarida o'tmishda unutilib ketgan urf-odatlar, o'zbekka xos ananalar qaytadan tiklanib, milliy tariximizning nomalum sahifalari tadqiq etilmoqda.

Yurtimizda shakllangan va turli bosqichlarda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan milliy davlatchilik tariximiz o'zbek xalqining siyosiy tarixi bo'lib, ular o'zbek millatining kuch-qudrati, erki, ozodligi, g'ururi timsoli hisoblanadi.

- Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Dovon, Kushon, Turk xoqonligi, temuriylar kabi davlatlar ana shunday davlatlardan edi. Bu davrlarda o'ziga xos boshqaruv asoslari - davlatchilik ta'limotlari yaratilgan. Ushbu davlatlarning taraqqiyotiga turtki bergan omillarni tadqiq etish va amaliyotda ulardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish bugungi kundagi davlat boshkaruv asoslarimizning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Milliy tariximizda buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur va uning davlatchilik tarixi alohida o'rin tutadi. Afsuski, sovet davri da Amir Temur faoliyatini xolisona o'rganishga katta to'siqlar ko'yildi va uning nomiga tuhmatu dashnomlar otildi.

Sovet davrida Amir Temurga otilgan tuhmatlar mustaqillik davrida barham topdi, uning tariximizdagi, umuman insoniyat tarixidagi katta xizmatlari munosib baholandi. Bevosita bu ulug zotning xizmatlarining etirof etilishida Prezidentimiz I.A.Karimovning katta o'rni bor. Prezidentimizning tashabbusi bilan 1994 yil 29 dekabrda «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida»gi hukumat qarori, 1995 yil 26 dekabrda «1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon qilishi to'g'risida¹»gi, 1996 yil martida «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil etish va «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risidagi farmonlari chikdi. YuNESKO xalkaro tashkiloti dunyo sivilizasiyasiga qo'shgan hissasini, tarixdagi buyuk xizmatlarini inobatga olib Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасишнг "Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида"ги қарори //Тошкент ҳақиқати, 1995 йил 4 январь

to'g'risida qaror qabul qildi¹. 1996 yil Amir Temur yili deb elon qilindi va bu tarixiy voqea dunyo miqyosida keng nishonlandi.

Birinchi Prezidentimiz «Shavkatli ajdodimizning o'lmas xizmatlari shundaki, u murakkab tarixiy sharoitda xalqning boshini krvushtira bildi. Istilochilarga qaqshatqich zarba berib, Turkiston zaminida ilk bor istiqlol bayrogini baland ko'tardi.

Parokanda mamlakatlar, ellar, elatlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli saltanat tuzdi»², - deb uning yurtimiz tarixida tutgan o'rni va xizmatlariga katta baho berdi.

Amir Temur Movarounnahrnigina emas, butun Markaziy Osiyoni yagona bayroq ostiga birlashtirdi va bu davlatni yirik saltanatga aylantirib professional davlat rahbari sifatida ushbu zaminda milliy davlatchilik asoslarini mustahkamladi.

Amir Temur butun bashariyat tarixida katta iz qoldirgan davlat arbobidir. U o'z faoliyati davomida yurtimiz va dunyo xalqlari obodligi uchun kuyidagi murakkab va masuliyatli vazifalarni ado etdi:

1. O'rta Osiyodan mo'g'ullarni tag-tomiri bilan yo'qotish;
2. Tarkoqlik, ichki urushlar va adolatsizliklar hukm surgan mamlakatni yagona davlatga birlashtirish va davlat boshqaruvida muhim islohotlarni amalga oshirish;
3. Qonun ustuvor bo'lgan jamiyat asoslarini yaratish;
4. Uning iktisodiy, ijtimoiy-siyosiy va manaviy asoslarini mustahkamlash;
5. Movarounnahrni dunyoning eng gullagan saltanatiga aylantirish;
6. Insoniyat tinchligi, farovonligi va adolatni taminlash;
7. Turli din, millat va elatlarning o'zaro ayirboshlashlariga imkon yaratish va shu orqali barchaning farovonligiga zamin yaratish. Uning xizmatlari tufayli yurtimizda jamiyatning barcha jabhalarida

Uyg'onish fasli boshlandi va uzbek madaniyati o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi.

U diniy, irqiy tafovut hamda ziddiyatlarning mavjudligiga qaramay Shark va G'arb davlatlari o'rtasida do'stona aloqalar tarixini ilk marotaba boshlab berdi, har ikki mintaqaning munosabatlarini rivojlantirish, xalqlarning farovonligiga erishish

¹ UNESCO: Resolutions twentyeight session of the general Conference.-Vol.1. - Paris, 1996. - P.89.

² Каримов И.А. Халкимпз бор экан, Амир Темур номи бархаётдир (Темурийлар тарихи давлат музейининг очилиши маросимида сўзланган нутк) // Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. - Т.: Ўзбекистон, 1997. 5-жилд. - Б. 169.

birinchi marta rasmiy masala sifatida ko'tarildi. Amir Temur Magrib va mashrikdiklarning bir-birlarini yaqindan bilishlari, iqtisodiy tarakqiyoti uchun sharoitlar yaratdi. Bu esa o'sha davr siyosiy hayotining katta voqeyeliklaridan biri edi.

Amir Temur dunyoning siyosiy xaritasiga muhim o'zgarishlar kiritib, G'arb davlatlari uchun katta xizmatlar kildi. Agar u Oltin Urda xoni To'xtamishni yengib Rus davlatining kelgusidagi mustaqilligi uchun katta zamin yaratgan bo'lsa, Yeldirim Boyazidni yengish bilan yevropaliklarni Usmonli turklar istilosidan kariyb yarim asrga kutkardi. Agar Amir Temur Yeldirim Boyazidni yengmaganda va turklarning kuchini o'z vaqtida zaiflashtirmaganda usmoniylarning istilolari bundan xam keng ko'lamli bo'lishi va bugungi Yevropaning siyosiy va iqtisodiy xaritasi butkul boshqacha bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas edi. Uning harakatlari tufayli yagona jugrofiy siyosiy makon, integrasiya tushunchalari ilk bor shakllantirildi.

Yevropa salb yurishlari istagini butkul yo'kotmagan, islom mamlakatlari ham "kofirlar", "g'ayridinlar"ga karshi "jihad" yurishlarini avj oldirayotgan bir paytda turli din vakillari orasidagi munosabatlarning iliq tomonga o'zgarishi o'sha davr uchun gayritabiiy hodisa edi. Amir Temur dini, irqi, millatidan qat'iy nazar barcha insonlarni Allohning oldida teng deb bildi va islom dinining sof umuminsoniy g'oya ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Amir Temurning tarixdagi bu ulkan xizmatlarini etirof etib Prezidentimiz haqli ravishda «Amir Temur - bizning sha'n-shavkatimiz, g'urur-iftihorimizdir. Amir Temur-xalqimiz dahosini timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir»¹, - deya alohida takidladi. I. Karimov Sohibqironning xalqimiz uchun nechog'li madad bo'la olishini chuqur anglab «Amir Temur-shaxsini idrok etish - tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash-o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash-tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib buyuk kelajagiga ishonchimizni mustahkamlash

¹ Каримов И.А. Халкимиз бор экан, Амир Темур номи барҳаётдир (Темурийлар тарихи давлат музейининг очилиши маросимида сўзланган нутқ) // Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. - Т.: Ўзбекистан. 1997. 5-жилд. - Б. 167.

demakdir»¹ dedi va Sohibqironni o'rganish tariximizni, o'zligimizni anglash ekanligini, ildizlarimizning nechog'li baquvvatligi, kelajakda ham shunday ulug' davlat asoslarini barpo eta olishimiz mumkinligi haqida gapirib, xalkni ruhlantirdi. Bizning nazarimizda Islom Karimovning Amir Temurga bergan bahosi haqqoniy va odil bahodir.

Birinchi Prezidentimiz, «Kimki uzbek nomini, uzbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak»², - deb Amir Temur nomini fakat eslabgina kifoyalanmasdan uning avvalo milliy gurur va qudrat timsoli ekanligini eslamoq joizligini adohida takidladi.

Amir Temur nafaqat uzbek milliy davlatchiligi, balki, umuminsoniyat tamadduni tamal toshlarini qo'ygan hukmdor sifatida ezozlanadi.

Shuningdek, Amir Temur homiylgi ostida uning davrida yaratilgan intellektual meros Yevropa Uyg'onishiga samarali tasir ko'rsatdi.

Ingliz olimasi Xilda Xukxem Amir Temurning uz yurtining davlatchilik va madaniyat ananalarini davomchisi bo'lganligi, X-XI asrlarda tabobat, matematika, astronomiya, geografiya, falsafa, tarix, arab va fors tili, adabiyot bo'yicha benazir asarlar yaratgan buyuk allomalar yurtidan chiqqanligi, bu asarlar bir necha yuz yillar davomida Yevropa Uygonishiga katta kuch bag'ishlagani va poydevor bo'lib xizmat qilganligini aytib o'tgan edi.

Uning faoliyatini o'rganish nafaqat o'zbek xalqi balki, Markaziy Osiyo davlatlari, butun Sharq va G'arb tarixini yana-da chuqur o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Каримов И.А. Азалий буюклик маскани. Самаркан шаҳрида Амир Темур ҳдйкалининг очилиш маросимида сўзланган нутқ. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Жилд V. Т.: Ўзбекистан, 1997.5-жилд. - Б. 173.

² Каримов И.А. Соҳибқирон камолга етган юрт. // Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби.-Т.: Ўзбекистан, 1997.5-жилд. - Б. 177.

I-BOB. AMIR TEMUR DAVRI DAVLAT BOSHQARUV ASOSLARI

1.1 Amir Temur davri davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari

Amir Temur davri tarixining turli qirralariga oid qator tadqiqotlar olib borilganligiga qaramay bu davr davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari mavzusi alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

Amir Temur davlat boshqaruvida o'rta asr ananalarini saqlab qolgan bo'lsa ham uning boshqaruvida ko'plab o'ziga xos xususiyatlar mavjud.

Xorijlik mualliflar T.Lens va G. Loury Sohibqiron Amir Temur saltanati nafaqat harbiy kuch bilan barqaror turganligini, balki bu davlat boshqaruvidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotdagi turk-mo'g'ul an'alarining eng maqbul va afzal jihatlarining saqlanib qolingani ham davlatni mustahkam turishidagi muhim omil deb hisoblaydilar va bu davlat boshqaruvining eng ilg'or tizimlaridan ekanligini alohida ta'kidlaydilar .

Shuningdek, M. Haydar ham davlat boshqaruv institutlarida o'troq va ko'chmanchi aholi madaniyati aks etganligini, har ikki toifa aholi madaniy an'alarining davlatchilikka singdirilganligini alohida ta'kidlab, bu an'alar davlatni mustahkam boshqarishga katta ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatib o'tadi. Muallifning fikricha, har ikki madaniyat an'analari boshqaruvga singdirilsa-da, ammo barcha jabhalarda turkiy davlatchilik an'alarining yetakchilik qilganligini ham ko'rsatib o'tadi.

Demak, boshqaruvda o'troq va ko'chmanchi aholining diniy, milliy, mintaqaviy, etnik kadriyatlari ham uyg'unlik kasb etgan. Bu esa davlatning ijobiy taraqqiyotiga tasir ko'rsatgan.

Amerika olimi Beatris Mans Amir Temur hokimiyatga kelish arafasida Chig'atoy Ulusining mavkei katta bo'lganligi, mintaqada mo'g'ul boshqaruvi o'rnatilganligi sababli Chig'atoy zodagonlari siyosiy va mamuriy hokimiyatda katta rol o'ynagani, bu ananalarning Amir Temur davrida ham saqlanib qolganligini takidlab o'tgan.

Uning fikricha, fuqarolik boshkaruvida fors tili va madaniyati ananalari ustunlik qilgan, ammo davlatni boshqarishda forsiyzabon kishilardan ko'ra turk-mo'g'ul urug'laridan bo'lgan amirlarning tasiri kuchli bo'lgan, aksar hollarda chig'atoy amirlari mamuriy boshqaruvga jalb etilgan.

Ijtimoiy-siyosiy hayotda urug'-qabilachilik ananalari saqlanib barlos, arlot, jaloyir, suldus, yasuri, apardi kabilalari, Xuttalon amirlari, qoraunnaslar siyosiy jihatdan Amir Temur davrida katta mavqyega ega bo'lgan. Ular orasida barlos qabilasining mavqyei boshqa qabilalarnikidan kuchli bo'lgan.

Biz albatta Beatris Mansning bu fikrlariga ko'shilamiz, chunki Amir Temurning o'zi barlos qabilasidan bo'lgan va bu qabila zodagonlarining mavqyei kuchli bo'lgan.

Amir Temur davlatni boshkarishda ikki toifa kishilarning-forsiy va chig'atoylarning mavke, bilim va tajribalaridan foydalangan, ammo ularning kuch va imkoniyatlarini cheklashga intilgan, boshqa monarxlar kabi ko'lida barcha sohalar ustidan nazorat o'rnatishga intilgan .

Beatris Mans o'z tadqiqotida Amir Temur turk-mo'g'ul va fors-arab ananalaridan boshqaruvga moslab foydalangani haqida alohida takidlab o'tgan¹.

Amir Temur davlat boshqaruvida turk, mo'g'ul, arab ananalari uyg'unlashtirilgan holda bir-birini to'ldirdi. Milliy davlatchilik qadriyatlarimiz ushbu davlatning poydevori bo'lib xizmat qildi. Amir Temur davri rivojlangan davlatlari boshqaruvidagi afzal jihatlar milliy mentalitetimizga xos ravishda tanlab olindi va ijobiy rivojlantirildi.

Dissertant X.Mamatov Amir Temur davlat boshqaruvidagi eng birinchi tamoyil Sohibqiron Amir Temurning xalq bilan davlatni birlashtiruvchi kuch sifatida musulmon dinini qo'llab-quvvatlash, uni rivojlantirish, himoya qilish, musulmon hukuqiga amal qilish tamoyili² deb hisoblaydi. Biz muallifning fikriga qo'shilgan holda ushbu jihat davlat mafkurasi va manaviy tayanchini

¹ Manz B.F. Structure and function in Temur's administration. The rise and rule of Tamerlane. Cambridge University Press, 1989. - P. 107

² Маматов Х. «Темур тузуклари»да давлат ва ҳуқуқ масаласи... - Б. 105

kuchaytirishga xizmat qilgan, deb fikr bildiramiz. Amir Temur Chingizxon kabi fotihlardan farkli ravishda islom mafkurasining kuchidan o'z davlatini mustahkamlashda foydalandi. Uning asosiy maqsadlaridan biri mo'g'ullar davrida zaiflashib qolgan islom dini ananalarini kuchaytirish, o'z qo'l ostidagi xalqlarning tinchligini, iqtisodiy barkarorligi, konuniylik va adolatni taminlash edi. Uzinga karam yerlardan boju xiroj olish bilan cheklanib, ularning farovonligi bilan qiziqmagan bazi podshohlardan Amir Temurning farqi ham shundadir. Amir Temur davlatida konun ustivorligi va adolat qoidalariga qat'iy amal qilingani uning o'ziga xos xususiyatlaridandir.

Nizomiddin Shomiy hukmdor Amir Temurga shunday baho beradi: « u... bir komilzot bo'lib, uning lutfu-qahri har bir zamon talabiga ko'ra olam ahliga namoyon bo'lib turadi. Uning hayrli ishlari, rasm-rusumlari fe'l-atvori va so'zlarining ta'siri faqat yillar emas, ko'p asrlar davomida zamona sahifasida boqiy qoladi, nabira-chabiralari, do'stlari va yakini o'sha yo'ldan yuradilar, uning fe'li harakati va nufuzli hukmlariga.

erishadilar. Bu da'voni shohidi va bu manoning nishoni adolatli, eng himmatli ulug' amir Sohibqiron Amir Temur Kuragonning vujudi shariflaridir. Uning adolatli siyosati jazoga yaqin, qahri esa lutfga aralashdir... Yuqori darajadagi fozillar va ulardan quyirok kishilarning har birini o'z martabasiga ko'ra barqaror tutadi. Har bir kishini fazli va donishmandligi darajasiga loyiq maqomga qo'yadi. Mashoyihlar va solih bandalarni ulug'laydi, ular bilan hamsuhbat va hammajlis bo'lishga rag'bat ko'rsatadi. Ojiz kishilaru rayyatlarni, savdogaru dehqonlarni muhofaza etishda qonunlarga rioya qilib, adolat rasmini bajo keltiradi"¹.

Bu davrda xalqaro miqyosda iqtisod, savdo, tashqi siyosat va diplomatiyaning global muammolari diplomatik va rasmiy darajada hal etishga o'tilganligi Amir Temur davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlaridan biri edi. Ushbu tadbirlar esa Ipak yo'lining eng muhim tarmoqlari ustidan nazorat o'rnatishga, myntaqada kuchli geosiyosat yuritishga, integrasion jarayonlarning

¹ Низомиддин Шомий. Зафарнома... - Б.20-21.

kuchayishi va kengayishiga olib keladi. Davlat ichki va tashqi bozor munosabatlari har tomonlama ko'llab-quvvatlab, tadbirkorlik faoliyatiga katta yo'l ochib beradi.

Bizningcha, Amir Temur davlatni boshkarish siyosatining chingiziylar davlatchiligi an'analaridan farq qiluvchi qator jihatlari mavjud.

Birinchidan, Devon tizimi qadimgi davlatchilik an'alarimizga muvofiq tuzilgan bo'lib, bu apparat-ma'muriy tizimni Sohibqiron boshqaruvga asos qilib olib kirgan edi.

Ikkinchidan, agar Chingizxon 1206 yilda chaqirilgan Qurultoyda urug-qabilachilik tuzumida yashayotgan, chet el zulmi ostida ezilmagan, geosiyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lmagan yerda osonlik bilan ilk ko'chmanchi feodal mo'gul davlatining rahbari etib saylangan bo'lsa, Amir Temur yuzlab yillar ilgari katta davlatchilik taraqqiyotiga erishgan, IX-XII asrlarda o'zining manaviy merosi bilan dunyo sivilizasiyasini bemsil darajadaboyitgan o'troq va yarim o'troq aholining yurtida yagona davlat tuzishga muyassar bo'lgan edi.

G'arb va Sharkni bog'lovchi ko'priq hisoblangan O'rta Osiyo yer osti va yer usti boyliklariga kon, tabiati mo'tadil, eng muhimi barcha fothlarning nazari tushadigan, Buyuk Ipak yo'lining yirik tarmogi o'tgan, geosiyosiy muhim xudud edi. XIII-XIV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari bir yarim asrlik mo'gul zulmi va adolatsizliklardan ezilib, ruhan tushgan, tarqoqlik kuchayib iqtisod pasayib ketgan murakkab davr edi. Amir Temur ana shunday murakkab davrda markazlashgan davlat tuzishdek murakkab vazifani bajargan edi.

Uchinchidan, mo'ngul davlati mafkurasiga zid ravishda islohotlarda islom mafkurasi avvalgi o'ringa qo'yilgan.

To'rtinchidan, Amir Temur Chingizxondan farqli ravishda islom va adolat bayrogi osti da yurishlar uyushtirgan.

Beshinchidan, Chingizxon o'z boshqaruvida ko'chmanchi aholining manfaatlarini himoya qilgan. Amir Temur esa o'troq va ko'chmanchi aholining manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda davlatni boshqargan;

Oltinchidan, Chingizxon asosan boylik orttirish yurishlar uyushtirgan. Amir Temur esa mintaqalarda boju xirojlar olish bilan birga islom dini, tinchlik,

xotirjamlik, adolat, qonuniylik, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash yo'lida faoliyat yuritdi;

Yettinchidan, Chingizxon o'zi yurish qilgan yerlarda o'z ortidan vayronalar qoldirgan va bu yo'qotishlar ko'plab xalqlar va davlatlarning qariyb bir yuz ellik yil orqaga qaytishiga, taraqqiyotning keskin darajada pasayib ketishiga sabab bo'lgan. Amir Temurning mintakalardagi yurishlari shunchaki boylik orttirish missiyasi emas, uning zaminida jiddiy asoslar mavjud edi. Amir Temur o'z raqiblarining aybibilan vayron etgan yerlarni vaqti kelib qayta tiklagan va o'ziga bo'ysungan yerlarda keng bunyodkorlik ishlarini olib borgan. Chingizxondan Amir Temur tomonidan bunyod etilgan Samarkand, Kesh, Boylaqon kabi muhtasham shaharlar, shifoxonalar,

masjidu madrasalar, ko'priklar, rabotlaru bozorlar barpo etilgan emas. Bu masalada ham ularni bir-biri bilan taqqoslab bo'lmaydi. Bazi adabiyotlarda Chingizxon va Amir Temur beshafkatlikda teng ayblanadi, ammo Amir Temur keltirilgan vayronalar raqiblari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan jazo tariqasida ro'y berganini unutmazlik kerak. Uning Isfahon, Sabzavor kabi shaharlarda qirg'inlar uyushtirgani, odamlar kallasidan minoralar qurgani hakida malumotlar bo'lishiga qaramasdan hali arxeolog olimlar tomonidan bu faktlarning birortasi isbot etilmagan¹. Biz bu bilan Amir Temur tomonidan uyushtirilgan qirg'inlarni oqlamoqchi emasmiz, Amir Temur yurishlari davrida sodir etilgan vayronalar va berilgan kurbonlarga xalq aybdor emas edi, ammo u davr zaiflar kuchlilarga bo'ysungan, xalkaro siyosiy nufuz harbiy kuch orqali mustahkamlangan, bu davr urushlar davri ekanligini unutmazlik kerak. Bunday urushlar har qanday davlatlar o'rtasida sodir bo'lishi o'sha davr uchun tabiiy hol edi. Biz Amir Temurga va uning davlat boshkaruviga baho berishda ushbu omillarni ham inobatga olishimiz kerak.

Sakkizinchidan, Amir Temur harbiy boshkaruvni mo'g'ul uslubida olib borgan bo'lsa ham, bu usulga katta o'zgartirishlar kiritdi va mamuriy boshkaruvda

¹ Воробьев А. Тимур Великолепный. <http://www.peoples.ru/state/statesmen/tamerlan/>. Мурожаат этилган сана: 10.01.2017 йил.

fors-arab usullaridan o'z davlatining manfaatlariga moslab foydalandi. Uning boshqa davlat boshkaruv usullaridan farqi xam shundadir.

To'kqizinchidan, Chingizxon o'z vatanini ozod qilib mustaqil va markazlashgan davlat tuzish rejasini tuzgan emas. Amir Temur esa Movarounnahrdagina emas, butun Markaziy Osiyoda yagona davlat tuzib bu yerda istiqomat qiladigan xalqlarning taraqqiy etishiga katta imkoniyatlar yaratdi.

Uning davrida davlat va jamiyat, hamda fukarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga, barcha sohalardagi radikal o'zgarishparga aynan davlat tomonidan olib borilgan siyosat bosh omil bo'lib xizmat qildi.

Mamuriy tizimda ham ixchamlikka va samaradorlikka, xazina mablag'ini iqtisod qilishga katta etibor berilgan.

Amir Temur davlatining iqtisodiy qudrati avvalo davlat yerlaridan kelgan daromadlar, mamlakat aholisining to'lagan soliqlari, Buyuk Ipak yo'lidan tushgan bojlar, karam mamlakatlardan kelgan xiroj, moli omon va boshka soliqlar, yurishlardan tushgan o'ljalar, badavlat zamindor va tadbirkorlarning xayriya hadyalari va boshka manbalar evaziga kuchayib borgan.

Shuningdek, Amir Temur davrida davlat mulkini avaylash va ehtiyot qilish, moliyaviy manbalardan tejamkorlik bilan foydalanish yo'lga qo'yildi. Bu masalada Amir Temur nafaqat o'zi, balki o'g'illari, qo'l ostidagi sultonlarning ham to'g'ri siyosat yuritishini talab qilgan va ularni qattiq nazorat ostiga olgan¹.

Sharafuddin Ali Yazdiy malumotiga ko'ra, «Sohibqiron Hindistondan kaytib Samarqandda kelib tushti; arzig'a yetkurdilarkim, Tabriz viloyatida fitnalar paydo bo'lub turur.

Bu mahalda Honzoda Tabrizdin kelib hazratni ko'rdi va shahzodaning ahvolini tamom arz qildi va dedikim «Agar Sohibqironning fikrini qilmasa, u yag'iliq qilur. Molikim, hazratqa taalluq erdi, tasarruf qilib, barchani beklariga ulashturdi».

¹ Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома... - Б. 224. ~ Лангархона-камбағаллар яшайдиган жой.'

Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiy shunday hikoya qiladi: «Sohibkiron Ray va Shahriyordin o'tub erdikim, amirzoda Mironshoh keldi. Ul kun hazrat ancha ko'runush bermadi. Ushul kun Amon otliq, amirzoda Pir Muhammad Umarshayxning navkari Sherozdin peshkashlar bilakim, amirzoda yibarib erdi, kelib ko'runish etib, peshkashlarni tortti. Tonglasi amirzoda Mironshohga ko'runush berib, amirzoda yukunib qalin peshkashlar tortti. Ammo Sohirqiron anga hyech iltifot qilmadi, ul jihatdinkim andin yamon harakatlar zohir bo'lub erdi. Va Temur Xojai Oq Bug'a va Jalol al-islom hukm bila Tabrizg'a bordilarkim shahzodaning ahvolini so'rub, tahkiq qilg'aylar. (Alar tezda) Tabrizg'a borib noiblarini va omillarini tutib band qildilar va devoniy daftarlarni tilab, (necha yilliq) «du danga» molkim, devoni a'loi hossaga taaluq erdi, shahzoda ani olib xarj qilib erdi, barchani havola qildilar. Hazrat eshittikim, shahzodag'a ayshu ishratig'a bois bir jamoat sozandalar bo'lg'on ermishlar, alar jihatidin shahzoda ishratqa mashg'ul ermish. Bu jihatdin viloyatqa tashvishlar paydo bo'lg'on turur. Hukm bo'lib erdikim, alarni tutib yasoqqa yetkurgaylar» .

Amir Temur adolatni avvalo o'z farzandlaridan, oilasidan talab qilgan, janglarda ham o'g'il va nabiralarini ko'shinning eng xavfli qismlariga boshliq etib tayinlagan. Bu esa adolat va qonun ustivorlig'ini taminlashga, xalqning ishonchini qozonishga sezilarli tasir ko'rsatgan.

Sohibkiron Amir Temur davlatchiligi taraqqiyotining bosh omillaridan biri ijtimoiy tizimni to'g'ri tashkillashtirilganligidadir. Amir Temur saltanatida barcha tabaqalarning ijtimoiy ximoya masalalariga qat'iy etibor qaratilgan. Ijtimoiy tabakalarning salohiyati, kuchi, insoniy fazilatlariga alohida etibor berilib davlat va jamiyat uchun katta xizmat qilgan xodimlar ayrocha yuksak taqdirlangan va u bu masalada bir xil taksimotdan voz kechilgan. Shuningdek, davlatdagi kam taminlangan ijtimoiy tabaqalar kuchli muxofaza etilgan. Ular kiyim-kechak va pul taminoti bilan siylanganlar.

Hatto yetim-yesirlar uchun alohida langarxonalar² solingan va bepul taomlar tarqatilgan, davlatga xizmat qilgan kishilar moddiy taminlangan. Demak, Amir

Temur davlatining iqtisodiy, ijtimoiy, goyaviy vazifalari mukammal darajada tashkillashtirilgan.

Amir Temur davlatining mudofaa tizimi mukammal darajada tashkillashtirilgan bo'lib mamlakat butunligi, tinchligi va barqarorligiga raxna soluvchi ikki xavf-ichki va tashqi xavflar, ularning paydo bo'lishi sabablari o'rganildi va shunga monand mudofaa tiziminining vazifalari belgilandi.

Bu davrda qo'shin tuzulishi, mutaxassislarni to'g'ri tanlash va ularning ishini samarali tashkillashtirish, jang, mudofaa usullari o'z davri imkoniyatlaridan o'zib ketdi, harbiy soha yuqori darajaga ko'tarildi.

Shuningdek, bu davrda sud-huquq tizimi ish faoliyati o'z davrining huquqiy asoslari va taraqqiyot darajasiga monand olib borildi. Bu davrdagi sud-hukuk tizimi jamiyat va davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini ogishmay amalga oshirishda tayanch vazifasini o'tadi.

Amir Temur davlat boshkaruv asoslari to'grisida gapirganda bu davrdagi diplomatiya va xalqaro munosabatlarning beqiyos darajada rivojlanganligi, uning sanat darajasiga ko'tarilganligi, hamda ushbu omillarning davlat boshkaruv asoslarini mustahkamlashga xizmat qilganligini alohida takidlash joiz.

Amir Temurning jamiyatni o'n ikki toifaga bo'lishi va ijtimoiy tabaqalarga moye siyosat yuritishga intilishi bu davr davlat boshkaruv asoslarining mustahkamlanishiga olib boruvchi sabablardan biridir. Amir Temur davlatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u konunlar va axlokkaga asoslangan jamiyat kurdi. U avvalo o'zi ahloki yuksak inson bo'lib oila azolari va qo'l ostidagi xodimlarni ham ahloqiy jihatdan tarbiyaladi. Xodimlarni tanlashda ularning insoniy va ahloqiy fazilatlariga etibor berdi. Bu jihat ham uning katta yutuqlaridandir. B u esa boshqaruvga milliy ahloqiy qadriyatlarimiz singib ketganligiga guvohlik beradi.

- Amir Temur davlatchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning kengash, maslaxatga tayanganligidadir. Amir Temur «O'zga mamalakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, ganim lashkarini sindirish, dushmanni tuzoqqa tushirish,

muholiflarni ko'nglini topib do'stga aylantirish, dust-dushman orasida muomala, murosayu-madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qo'lladim

Pirim Zaynuddin Abu Bakr Toybodiy menga yozmishlarkim: «Abdulgʻalim (zafarmand) Temur saltanat yumushlarida to'rt ishni qo'llasin, ya'ni 1 - kengash; 2 - mashvaratu maslahat; 3 - hushyorligu mulohazakorlik; 4- ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari hato bo'lgan johil odamga qiyoslash mumkin: uning so'zlari va qilmishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo'lmagaysan»¹, - deb nimalarga katta etibor berganligini aytib o'tgan edi.

Amir Temur o'z davrining bilimdon siyosatdonlariyu, olimlari, fozil kishilari, sipohlar va amirlari bilan turli masalalar yuzasidan maslahatu mashvaratlar o'tkazar ekan, ular bilan ilmiy bahslarga kirishar va ulardan aniq va to'g'ri xulosalar chiqara olardi.

«Tuzuklar»da Sohibqiron o'z avlodlarini maslahatdan to'g'ri foydalana bilishga, ularning yuzaki yoki pishiqligiga e'tibor berishga chaqirdi, uningcha ana o'shandagina davlat tinchu osoyishta rivojlanishi mumkin.

Amir Temur davrida fuqarolarda davlat tomonidan o'rnatilgan qonunlarni hurmat qilish, ularga masuliyatli yondashish tushunchalari shakllangan.

Bu esa davlat tomonidan ilgari surilgan maqsad va g'oyalarni amalga oshirishdagi kafolatlardan biri bo'lib xizmat qilgan. Jamiyatda qonun ustuvorligiga erishishga aynan jamiyatdagi huquqiy ongning shakllanishi katta tasir ko'rsatgan. Bu davrda davlat rahbari, qonunlar, davlat boshqaruv apparata to'grisida muqaddas tushunchalar shakllangan. O'rta asrlar diniy-mafkurasining kuchini inobatga olsak, hamda azaliy udumlarimizga binoan «Sulton Allohning yerdagi soyasi» degan tushunchalarga amal qilingan, hamda davlat boshligining buyruk va farmonlarini bajarish diniy va dunyoviy talablardan hisoblangan.

¹ Темур тузуклари... - Б.24.

Amir Temur tarixiy-falsafiy tushunchalar'ini o'zining kurdirgan purviqor va salobatli imoratlarida ham ifodalashga intilgan. U bu masalada go'zallik va salobat inson psixologiyasi, ongi shuuriga kuchli tasir ko'rsatishini hisobga olgan.

O'z davrida yetmish metrdan ziyod Oqsaroy binosiga uzoqlardan ham o'qish mumkin bo'lgan «Sulton Allohning yerdagi soyasidir», «Podsholarning so'zi so'zlar orasida podshodir», «Adolat davlat asosi va hukmdorlarning shioridir», «Agar bizning kuch-qudratimizga shubha qilsang biz qurdirgan imoratlarga bok» kabi iboralarning yozilishi fikrimizga dalildir.

Sohibqiron bu yozuvlar orqali ommani mavjud qonunlar va davlatga nisbatan xurmat va ishonch ruhida tarbiyalash, fuqarolarning burch va masuliyatlari, o'z hatti-harakatlariga adolatli ravishda yondashishlari haqida tushunchalar berishga intilgan.

U ommani tarbiyalashning eng maqbul usullaridan biri ular ilmiy karashlarni shakllantirishda deb bilgan hamda jamiyatda ilmiy tafakkurning shakllanishiga katta etibor qaratg'an.

Xavfsizlikni kuchaytirish maksadida Amir Temur davrida fukarolar barqarorlikni muvofiqlashtirish ishlariga tortilgan. Jamiyatda tinchlik va barkarorlikni taminlashga barcha masul hisoblangan va ular faollashtirilgan. Amir Temur loqayd va befarq kishilarning mavjudligini o'z davlatiga xavf deb tushungan va ularning faolligini oshirish chora tadbirlarini ko'rgan.

Bu davrda fuqarolarda davlat mulki va unga nisbatan extiyotkorona munosabatda bo'lish tushunchalari shakllantirilgan. Tadbirkorlikka katta yo'l ochilgan hamda ularning tinchligi kafolatlangan. Mamlakatda shakllangan yirik zamindorlar, savdogarlar va boshka mulk sohiblari davlatga va ijtimoiy kam taminlangan kishilarga katta xayr-exsonlar berib turgan hamda jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi katta bunyodkorlik ishlarini olib borganlar. Shuningdek, fukarolar ongli ravishda xashar yo'li bilan davlatning iqtisodiy vazifasini to'kis bajarishga ko'maklashganlar. Davlat boshkaruvida ijtimoiy va iktisodiy siyosatning muvofiqligi siyosiy ongning rivojlashidagi muhim omil sanalgan.

Amir Temur jamiyatida atrof-muhitning sofliğini saqlash, tabiiy resurslar extiyotkorona foydalanish tushunchalari shakllangan. Shuni alohida takidlamochimizki, bu davrda islomiy va manaviy ananalarimizga muvofiq fuqarolarda shaxsiy manfaatlardan davlat va xalq manfaatlarini ustunligi tushunchalari shakllangan. Ularning xalq manfaatiga xizmat qilishi boshkaruvning eng muhim yutuqlaridandir. Amir Temur shaxsiy manfaatlargagina xizmat qiluvchi fuqarolar yashayotgan davlat tugal taraqqiy etmasligini chukur anglab yetgan. U shaxsiy manfaatlar sohiblarini o'z uyi devorining poydevorini kovlayotgan kishilarga o'xshatgan va bunday kishi o'zini va boshkalarni xalok qiladi deb qabul qilgan. Jamiyatda diniy-ahloqiy qadriyatlar ustuvor hisoblangan o'rta asrlarda ahloqiy asoslar siyosiy ongning shakllanishidagi poydevorlardan biri bo'lib xizmat kilgan. Jamiyatda ahloq va siyosat uyg'unligi taminlangan.

Yuz ellik yillik chuqur inkirozga qaramay bu davrda ilm-fan, madaniyat va memorchilik taraqqiyotida misli ko'rilmagan o'zgarishlar yuz berdi. Milliy fan tarixi yangi pogonaga ko'tarildi va bu davr fanda ikkinchi Uyg'onish nomini oldi. Amir Temur davrida nisbatan qisqa vaqt ichida bu qadar kuchli taraqqiyotga sabab bo'lgan omillar olimlar tomonidan hali to'la to'kis sharhlab berilmagan. Nazarimizda bu davrdagi fan va madaniyatning taraqqiy etishiga quyidagi omillar kuchli tasir ko'rsatgan: 1.O'rta Osiyo azaldan ilm-fan markazi hisoblanib kelgan. Ilk yozma manba «Avesto»dan tortib 1X-XP asrlardagi ensiklopedist olimlarning asarlarining yaratilishi va ilmiy kashfiyotlarning amalga oshirilishi asrlar davomida yurtimizda yuksak ilmiy tafakkur yuksak cho'qqiga ko'tarilganligini ko'rsatadi. Bu davrda Ahmad al- Farg'oniy, al-Forobiy, asarlari arab, fors tillariga o'girildi. Ulardagi muhim kashfiyotlar va xulosalar yangicha kashfiyot hamda qarashlar bilan boyitildi. Bundan tashkari Amir Temur uz davlatining poytaxti Samarkandga uz davrining zabardast olimu ulamolarini to'pladi. Amir Temur uz poytaxti Samarqandni ilm-fan markazita aylantirdi.

4. Shuningdek Balx, Hirot va boshqa kichik siyosiy markazlar xam ilm-fan markazlariga aylantirildi. Shohruh Mirzo(1396 -1447), Mirzo Ulug'bek (1409-1449) va uning ilmiy maktabi, Boysung'ur Akademiyasi huzurida

shakllantirilgan ilmiy muhit ham Amir Temurning ilm-fanga qo'ygan poydevorining mahsulidir.

Shuningdek, so'nggi temuriylar davrida Hirotning gullab-yashnashiga Xusayn Boyqaro (1438-1506) va Mir Alisher Navoiy (1441-1501) kabi buyuk davlat arboblarning sayi harakatlari katta tasir ko'rsatgan bulsa-da, ammo bu muhitning dastlabki poydevorlari ham Amir Temur tomonidan yaratilgan edi. Demak, biz bu davrda Uyg'onish pallasiga o'tilishida Amir Temurning katta xizmatlari singganligini, O'rta Osiyodagi ikkinchi Renessansning bevosita Amir Temur bilan bog'liqligini, bu ikki atoqli ismlar bir-birlari bilan bogliq tushunchalar ekanligini, o'zaro bir-birini to'ldirishini doimo etirof etishimiz lozim deb o'ylaymiz.

5. Bu davrda ilmu fan taraqqiyotidagi muhim omillardan biri Amir Temur davlatining yirik saltanatda joylashganligidadir. Bunda turli davlat chegarasida mavjud bo'ladigan to'siqlar olib tashlangan va boshqa sohalar qatori ilmu fan sohasidagi jarayonlar xam kuchaygan. Yigirma yetti davlatni birlashtirgan Amir Temur davlatida katta integrasion jarayonlar uchun zamin yaratilgan hamda ilmu fan taraqqiyoti yuksak cho'qqiga ko'tarilgan.

6. Avvalo Amir Temur davlat boshkaruvining yuqori darajaga ko'tarilganligi, saltanatda tinchlik va xotirjamlik, adolatning o'rnatilganligi bu davrdagi ilmiy ijodiy muhitga kuchli ijobiy tasir ko'rsatgan.

Shuni alohida takidlash joizki, Amir Temur davri davlat boshqaruvida siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy tizim, manaviy - ahloqiy omillar bir-birini to'ldirgan va bu bir-biriga uzviy bog'langan sohalar faoliyatining muvofiqlashtirilishi milliy davlatchilik taraqqiyotiga turki bergan omillardandir. Amir Temur davlati mutloq monarxiya tipiga mansub bo'lsa ham bu davrda davlat va jamiyatda siyosiy zo'rlik emas, aksincha davlatning fuqarolarga himoya va ko'magi kuchli bo'lgan. Shuningdek Amir Temur davlatining mafkurasi islomga tayanilgan umuminsoniy qadriyatlar bo'lib bu mafkura yer yuzida insonning dini, irqi va millatidan katiy nazar adolat va tinchlik, hamkorlik g'oyalarini shakllantirishga xizmat qilgan.

1.2. Amir Temur davri ijtimoiy tizimi

Amir Temur davlatining ijtimoiy tizimini o'rganish milliy davlatchilik tariximizni yana-da chuqurroq tushunib yetishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tarix masalalari bazi tadqiqotlarda qisman yoritilgan¹ ammo, bu muammo temurshunoslikda maxsus tadqiq etilmagan.

«Temur tuzuklari»dagi ma'lumotlarga ko'ra, Amir Temur davri jamiyatining ijtimoiy qatlamlari o'n ikki toifaga bo'lingan. Ularning manfaatlari va ijtimoiy himoya masalalari davlat boshqaruvida inobatga olingan. Bu ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi aloqadorlik va ularning muxofazasi qonun yo'li bilan tartibga solingan. Amir Temur davridagi ijtimoiy tizimi davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi eng muhim usullardan biri bo'lgan. «Temur tuzuklari»da ijtimoiy qatlamlar o'n ikkitaga ajratilgan. Bu o'n ikki toifa quyidagilardir: 1 - sayyidlar, ulamo, shayxlar va fozillar; 2 - akdli kishilar va kengash sohiblari; 3 -duogo'y kishilar; 4 - amirlar, sarhanglar, sipohsolorlar; 5 - sipoh va raiyat; 6 - ishonchli, to'g'ri etikodli kishilar; 7 - vazirlar, devon kotiblari va munshiylar; 8 - hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9 - muhaddislar, paygambarlar va avliyolar tarixini o'rganuvchi tarixchilar; 10 - mashoyixlar, so'fiylar, oriflar; 11 - kasbu hunar egalari; 12 - sayohatchilar, musofirlardir².

Amir Temur davrida urug'-qabilalarning. xam davlat boshqaruvidagi roli katta bo'lgan.

Xilda Xukxem Amir Temur harbiy lashkarining eng katta kuchlaridan biri chig'atoylarning katta imtiyozlarga ega bo'lganligi, ular har qanday soliqlardan ozod etilgani, dasht-sahrolarning hohlagan yerlarida chorvalarini boqish imtiyoziga ega bo'lganligini alohida takidlab o'tgan³.

¹ Manz Beatrice Forbes. The Ulus Chaghatay in the mid fourteenth century.. The rise and rule of Tamerlane. Cambrige University Press. 1989. - P.21-40; Мукминова Р.Г. Социальный состав населения. В кн: -Б.Ахмедов, Р.Мукминова, Г.Пугаченкова. Амир Темур.Т.: Университет, 1999. - С. 1 17-126.; АзаматЗиё. Узбек давлатчилиги Амир Темур ва темурийлар даврида... - Б. 190-208 ва бошқалар.

² Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржималари. - Б.Ахмедов таҳрири остида.-Т.: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. - Б. 81-84 /

³ Хильда Хукхэм . Властитель семи созвездий... - С.72.

R. G. Mukminova Amir Temur davri ijtimoiy tarkibini yoritishda davlat xizmatidagi oliy toifa kishilarni "qilich" va "kalam" sohibi kabi ikki toifaga ajratib ko'rsatgan. U kabila harbiy boshliqlari jumladan chig'atoylar boshliqlari yurishlarda xal qiluvchi kuchga ega bo'lganligi tufayli katta imtiyozlarga xususan, dasht-sahrolarning hoxlagan yerlarida chorvalarini boqish, soliq to'lashlardan ozod etilganligi xaqida to'xtalib o'tgan¹. Ular o'zlariga berilgan suyurg'ol yoki xususiy mulklari evaziga keladigan boyliklar hisobiga moddiy tomondan taminlanganlar.

Feodal zamindorlarning ham turli toifalari mavjud bo'lgan. Ular orasida davlatga ko'rsatgan xizmatlari evaziga "tarxon" yorligiga ega bo'lgan kishilar katta nufuzga ega bo'lgan. Ular yer soligidan ozod etilgan, podshoh majlislarida bemalol o'tirgan, to'qqiz martagacha gunohlari kechirilgan. Xilda Xukxem hatto "tarxon"larning yurishlarda, ovlarda kulga kiritilgan o'ljalari ham o'zlarigagina tegishli bo'lib, podshoh bilan bo'lishmaslik huquqiga ega bo'lganliklarini aytib o'tgan'

Bazi yirik zamindor-feodallar nafaqat qishloqda yashaganlar, ular shaharlarda katta foyda keltiradigan do'konlar, ustaxona hammomlar, uylarga ega bo'lib ularni ijaraga berish evaziga katta foyda olganlar. Ularning bazilariga qator savdo rastalari, karvonsaroylar qarashli bo'lgan. Amir Temur hokimiyatining markazlashishidan katta feodallar bilan birga o'rta va kichik yer egalari ham manfaatdor bo'lganlar. Feodallarning o'zi ham oliy, o'rta va kichik tabaqalarga bo'lingan.

Ijtimoiy tabaqalar ichida musulmon ruhoniylar katta mavqyega ega bo'lganlar. Shayxulislom, qozi, imom xatib, voiz (vaz aytuvchi-Sh.O'), mudarris, sadr, shayx kabi mansab va unvon egalari mamlakat manaviy hayotiga katta tasir kursatganlar. Ularning ijtimoiy taminoti uch taraflama- davlat, vaqf mulklaridan keladigan daromadlar, badavlat kishilar hamda fuqarolar tomonidan hadya etiladigan turli yer-mulklar, moddiy pul-buyumlar evaziga amalga oshirilgan.

¹ Мукминова Р.Г. Социальный состав населения... - С. 117-118

Amir Temur davrida savdogarlarga katta imtiyozlar yaratilgan va ularning orasida ham o'ziga xos tabaqalanish yuzaga kelgan.

Ularning orasida eng nufuzlisi tujjorlar-asosan xalkaro savdo ishlari bilan shugullanganlar. Bozorda savdo qiluvchilar "axl-i bozor" deb yuritilgan, ular sotuvchi savdogarlar, olib sotarlar, chayqovchilar va boshqa guruhlariga bo'lingan¹. Ularning samarali mehnat qilishlari uchun bozorlar, savdo rastalari, tim va ravoklar qurilgan. Xalqaro savdoni rivojlantirish maksadida Buyuk Ipak yo'li qayta tamirlangan va kelib-ketuvchilarning xavfsizligi taminlangan.

Sohibqiron saltanatida yoshu-kari, erkaklar bilan bir qatorda ayollar tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqiga ega edi. Fikrimizga dalil sifatida bir misol keltirmoqchimiz: «Uning siyosati o'rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xitoy va Xo'tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atroflarigacha, Bob ul-Avbobdan to Misr va Rum hududigacha bo'lgan yerlardan savdogarlar u yokda tursin, bolalaru beva xotinlar xam ipakli matoli oltin-kumush va eng zarif tijorat mollarini keltiradilar va olib ketadilar. Hyech bir kimsa ularning bir doniga ham ko'z olaytira olmaydi va bir dirxamga xam ziyon yetkazmaydi»¹.

Amir Temurning elchi orqali Misr hukmdoriga yetkazgan xatida xam ishbilarmon savdogarlar alohida tilga olinadi: «Endilikda vazifa shulki, hamsoyalik haqqiga rioya qilib, do'stlik eshigini ochaylik, toki bundan buyon har ikki tomondan elchilar borib-kelib tursinlar, har ikki mamlakat savdogarlari uchun yo'l ochib qo'yilsin va bu ma'ni xalq osoyishtaligiga va yo'llarning eminligiga sabab bo'lsin».

Amir Temur davrida hunarmandlar tabaqasi ham jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta rol o'ynagan. Hunarmandlarning to'quvchi, tikuvchi, kandakor, novvoy, temirchi kabi o'nlab turlari bo'lib ishlab chiqarishning asosiy salmog'i ular hissasiga to'g'ri kelar edi. Hunarmandlarning kichik birlashmalari mavjud bo'lib, bu birlashmalarga oksoqol ustalar rahbarlik qilgan. Bu birlashmalarda o'ziga xos ustoz-shogird munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Shogirdlar

¹ Мукминова Р.Г. Социальный состав населения... - С.119

ustoz ko'lida yillar davomida o'z kasbining sir asrorlarini, kasbiy ko'nikmalarni egallaganlar. Biz bu davrdagi hunarmandlar faoliyatini kuzatib ularning o'ziga xos kasb-hunar, maorif va marifiy maskan ekanligini anglab yetamiz. Bu yerda yoshlar yillar davomida nafaqat hunarmandchilik sirlarini o'rganishgan, balki manaviy jihatdan xam hayotga puxta tayyorlangan. Milliy tarixiy qadriyatlarimizga asosan ustozlarni, yoshi ulug' kishilarni durmat qilish, xalollik, mehnatsevarlik masuliyat va boshqa burchlar haqida ko'nikmalar hosil qilingan.

Oddiy kishloq axolisining ham o'ziga xos tabaqalari mavjud edi. Mayda xususiy yer egalari, ijarachilar, erkin dehqonlar, qullar oddiy xalkning o'ziga xos tabaqalarini tashkil etar edi. Qullar mehnatidan asosan uy ishlarida, katta qurilishlarda foydalanilgan. Bu davrda yer egaligi to'rt xilda bo'lgan. 1- davlat mulki(mamlaka); 2 -xususiy yerlar; 3 - vaqf yerlari; 4 - jamoa yerlari.

Bu davrda ijtimoiy soha, davlat boshqaruvi va qonunchilik o'rtasida o'zaro aloqadorlik va mutanosiblik saqlangan. Ularning bir-biri bilan munosabatlari qonunlar bilan tartibga solingan.

Sohibqiron Amir Temurning ijtimoiy siyosatidagi yana bir muhim muvaffakiyati shundaki, u ijtimoiy qatlamlarni o'z vaqtida yetkazilgan munosib maosh, suyurg'ol, mukofot, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa moddiy taminotlarini to'g'ri tashkillashtirish orkali ragbatlantirdi. U sifatli, o'rtacha va kamroq ish beradigan xodimlarni bir xil xizmatda ishlashlaridan qat'iy nazar bir xil moddiy taminlash yo'lidan bormadi va u xodimlarning ilm va malakalariga xos ravishda turli maoshlarni adolat bilan belgiladi.

Amir Temur mamlakatni boshqarishda xizmatchi va xodimlarni tugri tanlash va ularni joy-joyiga qo'yishni davlatning eng muhim masalasi deb bildi va ilimli, tajribali, dono, halol, xushyor va tadbirkor kishilarga tayangan holda davlatni boshqardi.

U vazirlarni, amirlarni, devonbegini, viloyatlardagi devon xodimlari va beklarni tanlash, ularni joy joyiga ko'yishda nomzodlarning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, sabr-toqatlilik, tinchliksevarlik, adolatparvarlik kabi

fazilatlariga, ko'tarinki ruhiy hayotiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosa qilish qobiliyatiga katta baho bergan .

Amir Temur o'tmishda hukmronlik qilgan sultonlar, yirik davlatlarning qonun-qoidolari, podshohlikning sir-sinoatlari, hatto payg'ambarlar hayotini o'rganib ularning g'alabasi yoki mag'lubiyatining sabablarini chuqur mushohada etdi va o'ziga zarur xulosalarni chiqardi, ularning ijobiy jihatlaridan davlat boshqaruvida foydalandi. Uning davlatchilik talimotida milliy davlatchilik ananalari, o'z davrining muhim ijodiy qonunchiligi va talimotlari uyg'unlashib yangicha mukammal davlat asoslari yaratilgan. Bu omillar Amir Temur davrida nafakat fan, madaniyat va boshqa sohalarda balki avvalo davlatchilikda Uygonish pallasiga o'tilganligini va bu keyinchalik boshqa sohalarga ham o'z tasirini o'tkazganligini ko'rsatadi.

U avvalo bo'lajak hukmdorlarga alohida e'tibor berdi. Keyingi temuriylar - Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Abu Said Mirzo va boshqalarni davlat ishlarini to'g'ri yuritishga yo'naltirdi. Bu davrda shahzodalarni davlat ishiga tayyorlash siyosiy masala bo'lgan. Ular davlat boshqarish ishiga yoshligidan tayyorlanib borilgan. Shahzodalar tug'ilishi bilan ota-onasidan olib enaga(shahzodani emizuvchi ayol) va uning eri-otaliqqa berilgan. U ni o'z onasi emas boshqa malika tarbiyasiga olgan . Bu tarbiyada ahloqiy omillarga katta ahamiyat berilgan. Haqiqatan ham ahloki, manaviyati tuban davlat rahbari o'zi boshqarayotgan xalqning orzu-umidlarini ro'yobga chiqara olmas, davlatni mustahkam boshqara olmas edi. Amir Temur o'z avlodlarining adolatli, insofli, jasur, mard, jismoniy bakuvvat, iymonli bo'lishi uchun barcha sayi harakatlarini ishga solgan edi.

Bu masalada ayniqsa sportga alohida e'tibor berilgan. Shahzodalar suzish, ot surish, kamondan o'q otish, chim ustida xokkey o'ynash, kurash kabi ko'p sohalarni mukammal egallashgan.

Amir Temur vazirlar tanlash masalasini ham muhim deb bilgan. Amir Temur fikricha saltanat ishlarida vazirlar xal qiluvchi rol o'ynaydi, ular davlat ustunlaridir. Amir Temur fikricha vazir bo'lmish kishida kuyidagi sifatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak:

1 - vazir bo'lmish kishi toza nasllik; 2 - aql-farosatlilik; 3 - sergaklik, ogohlik va xushmuomalalik; 4 - sabr-bardoshlilik, tinchliksevarlik Amir Temur shunday fazilat sohiblarigagina davlat ishlarini ishonib topshirish mumkin deb hisoblangan. Bunday vazirga to'rt imtiyoz: ishonch, e'tibor, ixtiyor, qudrat berilgan".

Amir Temur o'ylashicha, kamolga yetgan vazir davlat ishlarini tartibga keltira oladi, mulkiy va moliyaviy ishlarni adolat bilan hal qiladi. Ruksat beruvchi yoki ta'qiqlovchi buyruqlarda u o'zining toza naslligi, fikri va ko'zi to'kligini ko'rsatadi. Unday vazir fuqaroga dushmanlik va jabr zulm qilmaydi. Hoh ziyoli, hoh amaldor, hoh oddiy fuqaro bo'lsin hammasining hurmatini o'z joyiga ko'yadi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, g'iybatlarni tinglamaydi. Kimdan yomonlik ko'rgan bo'lsa ham ul vazir shunday ish tutadiki, yomonlik qilgan kishini tarbiyalab yomonligidan qaytaradi.

Amir Temur o'z avlodlarini ogohlikka chakirib « asli toza, nasli pok, ulug' zotlardan bo'lgan, yaxshi ravishlik kishilarni topib, vazir kilinglar. Chunki asli toza kishi xatolikka yo'l qo'ymaydi, badasl esa vafo kilmaydi»¹ deydi.

Amir Temur davlatida kaysi vazir soflik, to'g'rilik bilan ish olib borsa, unday vazir eng oliy martabaga ko'tarilgan. Davlatning moliya va mulk ishlarini diyonat bilan boshqargan va savob ishlarini ko'paytirgan, omonatga xiyonat qilmagan, nafsidan ustun kelgan vazir eng yaxshi vazir hisoblangan. Amir Temur nomzodlarni mansabga tayinlashda irsiy va ahloqiy omillarni avvalgi o'ringa qo'ygan.

Sohibqiron fikricha, dono vazir vaziyatga karab goho qattiqqo'llik va goho yumshoqlik qiladi. Ortikcha qattiqqo'llik va aksincha ortiqcha yumshoqlik ham davlat ishida yaramaydi. Vazir «Agar ko'p muloyimlik qilsa, dunyotalab ta'magir odamlar uni yutib yuboradilar. Agar ortiqcha qattiqqo'llik ishlatsa, undan qochadilar va unga boshka murojaat qilmaydilar.

Demak, dono vazir saltanat korxonasining ishlarini to'g'ri chora tadbirlar kullab, yaxshi anglagan holda amalga oshirib, davlatni tartib-intizomga keltiradi. Yaxshi vazir «agar saltanat ishlarida chigil-jumbok uchrasa, aqlu-farosati barmog'i bilan uni yechib yuboradi» .

Temuriylar davri boshqaruvida ham vazirlarga alohida etibor berilgan. Mashxur tarixchi Mirxondning nabirasi Xondamir tomonidan yozib qoldirilgan "Dastur al-vuzaro" (Vazirlar uchun dastur)¹ hatto ularga yozib qoldirilgan qo'llanmadir.

Amir Temur fikricha, agar podshoh zolim bo'lib vazir odil bo'lsa u podshoh jabr-zulmini to'xtatishga intiladi. Bordiyu vazir zolim bo'lsa, saltanat ishlari tez muddatda inqirozga uchraydi².

Sohibqironning harbiylarni tanlash va mansabga qo'yish tajribasi biz uchun ibratlidir. Bu davrda markaziy va mahalliy hokimiyatga ko'proq harbiylar qo'yilgan.

Bu davr siyosatiga baho berishda biz bu vaqtda harbiy peshqadamlik xalqaro siyosiy nufuzni belgilaganligini, davlat boshqaruvida harbiylar katta rol o'ynaganligini, hatto Soxibqiron Amir Temurning o'zi ham yirik lashkarboshi, qo'shinlar bosh qo'mondoni ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Biz davrning harbiycha ruhini, shuning uchun ham harbiylarni to'g'ri tanlay bilish o'sha davr uchun hayot-mamot masalasi ekanligini e'tibordan qoldirmasligimiz kerak. Usha davrda harbiy qudrati past davlatlar yirik harbiylashgan davlatlar asoratiga tushgan va kuchlilarga zaiflar bo'ysungan. Tom ma'noda o'rta asrlar davri yurishlar, bosqinlar, himoyaga va xarbiylarga muhtojlik davri edi. Sohobqiron Amir Temur ana shunday murakkab harbiy feodalizm davrida davlatni boshqardi va uning strategik sezgisi uni harbiy sohani rivojlantirishga undadi.

U xarbiylikka olinadigan kishidagi sergaklik, hushyorlik va tadbirkorlikni avvalgi o'ringa qo'ydi. «Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi kat'iy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming-ming tadbirsiz loqayd kishidan afzal»² deb bilgan.

Amir Temur saltanatida sipohiylarga ikki imkoniyat berilgan.

Agarda askarlar yalqovlik kilib ish vaqtyda sustkashlik qilsa unga yozuv chizuv ishlari berilgan. Agar u ikkinchi marotaba ham yaxshi ishlamay, xatoliklarga yo'l qo'ysa xizmatga kabul kilinmagan. Bu haqda «Tuzuklar» da shunday ma'lumot bor: «Agar sipoxiylik ishlarida yalqovlik kilgan bo'lsalar, ularga yozish-chizish

¹ Хондамир. Дастур ал-вузаро. ЎзФАШИ кўлёзмаси, инв № 55/1. " Темур тузуклари ... - Б. 98.

² Амир Темур ўғитлари. - Б.Аҳмедов таҳрири остида.-Т.: Наврўз, 1992. - Б. 11.

bilan shug'ullanuvchilar orasidan ish berilsin. Agar shundan keyin ham xatoga yo'l qo'yib, kaltabinlik qilsalar, ikkinchi bor xizmatga olmasinlar».Sohibqiron Amir Temur tadbirsiz, lokayd kishilar jamiyat uchun halokatli deb tushungan, shuning uchun u bunday kishilarni har qanday davlat ishlariga ayniksa harbiy ishga yaqinlashtirmagan.

Sohibqiron Amir Temuroning navkarlikka olinayotgan yigitning qaysi xislatlariga e'tibor berganligini uning quyidagi so'zlaridan ilg'ash mumkin: «Cherik tuzib navkar olmokda-deydi u-uch koidaga amal kildim: birinchidan yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan qilichni o'ynata olishiga, uchinchidan aqli zakovatiyu kamolotiga e'tibor berdim. Shu uch sifat jamuljam bo'lgandagina navkarlik xizmatiga oldim»¹.

Uning fikricha, jismonan baquvvat yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli bo'ladi, kilich o'ynatishni yaxshi bilgan navkar raqibini har qanday sharoitda ham mag'lub eta oladi. Aqlli va tadbirkor bo'lsa u har qanday mushkulotni aql-farosati va to'g'ri tadbiri bilan bartaraf etmogi mumkin.

Sohibqiron Amir Temur lashkar tanlashda uning sadokatiga, vatanparvarligiga katta e'tibor berdi. U hatto dushman tomondan sotqinlik bilan uning xizmatiga kirgan sipohiylarni o'ziga eng yomon dushman, hatto xoin deb bildi. Bu haqda <<Tuzuklar>>dan bir misol keltiramiz: «Qaysi bir sipohiy tuz xaki va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o'z egasidan yuz o'girib, mening oldimga kelgan bo'lsa, unday odamni o'zinga eng yomon dushman deb bildim. Chunonchi, To'xtamishxon bilan bo'lgan o'zlari ulug'lab (martabasini) ko'targan bo'lsalar, tezda uni xorlab tuban tushirmasinlar. O'zlari ko'targan kishilarni tashlamasinlar»'.

Bundan xulosa shuki, avvalo biron kishiga amal berilayotganda u shaxs obdon o'rganilmog'i, sinalmog'i lozim. Kimki,. mansabu amalga erishganda salbiy ishlarga qo'l ursa demak u bu ishga noto'g'ri qo'yilgan bo'ladi. Malumki, Amir Temur qo'shinida o'nboshi, yuzboshi, mingboshilik va o'n ming sipohni

¹ Темур тузуклари... - Б.92. Амир Темур ўғитлари... - Б.57.

boshqaruvchi tumanboshilik, shuningdek o'n ikki pogonali amirlik darajasi berilgan. Ular uch yuz o'n uch kishidan iborat bo'lgan.

Amir Temur uch yuz o'n uch kishidan to'rt nafarini *beklarbegi* etib tayinlangan. Ushbu to'rt nafar *beklarbegi* o'zlarining chaqqon, epchil, katta tajribaga egaligi, usta va mohirligi janglarda ko'rsatgan jasoratlari bilan ajralib turgan.

Temuriylar davrida qo'shin sardori *amir ul-umaro* deyilgan. *Amirul-umaroning* hukmi yurishlarda, urushlarda amirlar va butun sipoh tomonidan so'zsiz ijro etilgan. Uning oldiga shunday shartlar qo'yilganki, jang boshlanishidan oldin u urush maydonini to'g'ri tanlay bilishi kerak. Birinchidan, sardor jang maydoniga suvning yaqin yiroqligini, ikkinchidan askar saqlash mumkin bo'lgan yerni, uchinchidan ganim lashkari turgan yerdan teparoqda bo'lish va oftobga ro'baru bo'lmasligini ta'minlashi kerak. Aks holda kuyosh shu'lasi sipohiylar ko'zini kamashtirib ko'yishi mumkin. U xolda esa jang boy berilishi mumkin.

Qo'shin sardori shunday sergak bo'lishi kerakki, u g'anim sipohi sarkardalarining soni va sifati haqida aniq ma'lumot ola bilishi, o'z qo'shiniga ham ularga teng keladigan lashkar boshliqlarini qo'ya olishi kerak. Sardor g'anim lashkarining qaysi qismi jangda ko'proq urushayotganini ham nazarda tutishi kerak. Masalan, o'qchi, qilich chopuvchi yoki nazador ko'proq jang qilayotganini nazarda tutishi lozim. Har qanday sharoitda ham qo'shin sardori aql va tadbirkorlik bilan ish ko'rishi kerak. Lashkarboshi tadbir qullashda shoshmasligi, chorasi iuq ishga esa umuman kul urmasligi kerak .

Teranroq karalsa, uning bu sohadagi qarashlarida chuqur falsafiy ma'no borki, bu goyalar tabiiy ravishda davlatchilikning poydevori edi. U xodimlari, vaziru arkonlaridan avvalo xushyorlik, soflik, halollik, ogohlik, sergaklik, bilim, tajriba va tadbirkorlikni avvalo insoniylikni talab qilgan edi. Amir temurning ijtimoiy konsepsiyasida ahlokiy asoslar uning gorizontal qismini tashkil etsaa, mutaxassislar ularning vertikal qismi hisoblangan, mazmun va shakl bir-birini to'ldirgan.

Amir Temur davridagi ijtimoiy tizimini yana-da kengroq tushunmoq uchun bizningcha ijtimoiy himoya masalalarini kengroq tushunmoq kerak. Bu davrdagi ijtimoiy himoya masalalariga tadqiqotchilar qisman to'xtalib o'tganlar¹.

Amir Temur davrida kam ta'minlangan, kambag'al fuqarolar davlatning kuchli muxofazasida bo'lgan. Qator manbalardagi ma'lumotlar fikrimizga dalildir.

«Temur tuzuklari»da aytilishicha, «faqiru miskinlarga har qishloq va shaharlarda langarxonalar solinib, u yerda miskin va yetim-yesirlarga taom berilgan».

Ularning ta'minot masalalari, hol-ahvoli kunma-kun poytaxtga yetkazib turilgan, agarda muammolar paydo bo'lsa tezda bartaraf etilgan.

Bu davrda hatto kambag'al va nogiron kishilarga ham nafaqalar berilgan. Amir Temur «fakiru miskin, biron Kasb qilishga ojiz shol-ko'rlarga nafaqa belgilasinlar» deb ko'rsatma berganligi yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Bundan tashqari moddiy jihatdan kam ta'minlangan kishilarga yoz va qish mavsumlarida kiyim-bosh berilgan, hatto ba'zan yillik oзуqalari avvaldan berilgan.

Muarrix Sharafuddin Ali Yazdiy Sohibqiron Amir Temurning bir farmoyishi haqida shunday ma'lumot beradi: «... har viloyatdakim, fakiru miskin va darvishu mustahiqq bo'lsa yigishturub, yillik oзуqa va to'n va kungalak tanabon va kafsh va etuk va futa va dastor bersunlar va qishliq va yozlik to'nlar bersunlar»².

Uning bu buyrug'i mamlakatning hamma yerida bajariladi va ma'lumotlarga ko'ra «barcha viloyatlarning akobiru ashroflari va raoyo va fakiru miskinlari aning davlatidin xurram va xushhol bo'lub duo bila aytur edilar».

Manbalardagi ushbu ma'lumotlar bu davrdagi ijtimoiy ximoya nechog'li darajada kuchli bo'lganligini ko'rsatadi, birok Amir Temur va temuriylarning bu insonparvar siyosati bekorchi, ishyokmas kishilarga qaratilmagan edi. Amir Temur mamlakatidagi bekorchi, gadolarga qarshi kurashdi. «Tuzuklar»dagi ma'lumotlarga ko'ra, to'rt muchchasi soglom gadolarga kundalik oziq-ovqatlari

¹ Ахмедов Б.А. Амир Темур ёд этиб. Т.: Ўзбекистан, 1996; Бобоев Х.- Б. Амир Темурнинг давлат тўғрисидаги қарашлари. - Т.: 1992. Темур ва Улуғбек даври тарихи. Т.: Фан, 1996. ва бошқалар.

² Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома... - - Б. 187

berilgan, ular ish bilan ta'minlangan va tamgalangan. Ularga ikkinchi marotaba gadolik qilish ta'qiqlangan. Agarda ular bu ishni yana takrorlasalar boshqa davlatlarga sotib yoki haydab yuborilgan¹.

Amir Temur «buyurdimki, har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo'l bilan gadolik yo'qotilsin» deb farmon bergan.

Sohibqiron Amir Temur nafaqat kambagallarni balki ziyoli, ilm-ma'rifatli olimu ulamolar, davlat amaldorlarini xam ijtimoiy ragbatlantirgan.

Ularning tirikchiliklarini bimalol o'tkazishlari uchun suyurgol tarzida yerlar in'om etilgan, bu esa ularning zimmasidagi vazifalarni kuchaytirishga xizmat qilgan. Ularga kundalik va oylik maoshlar ham berilgan.

Shuningdek bu davrda sipohiylar xam ijtimoiy himoyaga olingan. Ular mamlakat kuch-kudrati timsoli deb tushunilgan. Uning navkar va amirlarining biror xizmati taqdirlanmasdan qoldirilmagan. Sohibqiron fikricha, «sipohiy davlat xizmatida ekan, boqiy hayotlarini foniyl dunyo naqdi uchun ayamaganliklarining o'zi ham in'omga va moddiy ta'minotga loyiqqligini bildiradi».

Amir Temur va temuriylar saltanatida kekxa-kariyalar ham ijtimoiy muhofazada bo'lganlar. Amir Temur kekxa sipohiylar haqida shunday deydi «Qaysi bir sipohiy (yoki biror kasb va amal egasi-Sh.O'.) xizmatda yurib qarilik yoshiga yetarkan, uni oylik haqdan mahrum etmaslik va martabasidan tushirmaslik kerak» .

Sohibqiron davlatida ular qadrlangan va el ardog'ida bo'lgan. Shuningdek, davlat va harbiyl ishlarni takomillashtirishda ularning maslahatlaridan keng foydalanilgan. Amir Temur katta tajribaga ega bo'lgan kekxa sipohiylarni o'z saltanati korxonasining ustunlari deb bilgan⁴.

Bu davrda yuqori martabali kishilardan toki kambagal kishilargacha kuchli ijtimoiy himoya ostida yashaganlar. Xalqning to'qligi davlat farovonligiga va uning kuch-qudratli bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

¹ Темур тузуклари... - Б. 119

Hatto bu davrda fuqarolarni ijtimoiy himoya qiluvchi kredit tizimi ham mavjud edi. «Sarmoyasi qo'ldan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini kayta tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin»⁵ deyiladi «Tuzuklar» da.

Bunday ragbat va ijtimoiy himoya nafaqat savdogarlarga balki, millati va elatidan qat'iy nazar dehqon, hunarmand va boshqa kasb egalariga, barcha fuqarolarga ham tegishli edi. Agarda qaysi ziroatkorning yerni ekishga mablag'i bo'lmasa ularga turli asbob va kerakli narsalar berilgan. Bu haqda «Tuzuklar»da shunday ma'lumotlar bor «Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob berilsin»¹.

Bu davrda agarda fuqarodan birining uy imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar va yordam berilgan².

Amir Temurning bu siyosati tom ma'noda baynalminal siyosat edi. Temur tuzuklarida «Mening dargohimga iltijo qilib, panoh istab kelgan turku tojik, arabu ajam toifalaridan bo'lganlar haqidagi tuzuk» bo'lib, unda shunday deyiladi: «Birinchi navbatda, mazkur toifa va tabaqalardan sayyidlar va ulamoni izzat-hurmat qilishni, har qanday istaklari bo'lsa darhol muhayyo etib, mukarrar ravishda ularning ahvolidan habardor bo'lib turishni buyurdim. Agar sipohiylar toifasidan bo'lsalar, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o'z ahvoli kasbi koriga qarab ish tutsinlar».

Shubhasiz Sohibqiron Amir Temurning ijtimoiy siyosati adolat va taraqqiyot omillaridandir. Uning ijtimoiy siyosati soliklar masalasida ham yaqqol ko'rinadi. «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yigishda ularni ogir ahvolga solishdan yoki mamlakatni kashshoqlikka tushirib ko'yishdan saqlanishi kerak».

Amir Temur fikricha, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambagallanishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida saltanatning

kuchsizlanishiga olib boradi. U fuqarodan soliqlar yigishda ularning imkoniyatlarini ham inobatga olgan.

1.3. Amir Temur - davlat boshlig'i

Keyingi un yilliklarda Amir Temur faoliyati vatandosh¹ va xorijlik⁴ olimlar tomonidan keng urganilayotganligiga karamay, uning davlat boshligi va shaxe sifatidagi faoliyati maxsus tadqiq etilmagan.

- B.Ahmedov, O.Bo'riyev, Azamat Ziyov, H.Boboyev, A.Saidov, L.Keren va boshqa ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida bu mavzuga qisman to'xtalib o'tganlar.

A.Saidov «Amir Temur o'z davlatini har kanday kutilmagan voqyealardan saqlashni, himoya qilishni bilgan. Davlatini kuchli va mustahkam, xalqini baxtli va uning xayotini farovon qilishni uddalay olgan. U o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga qat'iylik bilan erishgan. Shuning uchun ham u o'sha davrda dunyodagi eng kuchli saltanatga ega bo'lganligini» alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Sohibqiron Amir Temur «Tuzuklar» da hukmronlik davomida o'n ikki qoidaga amal qilganligini ta'kidlab utgan. U aytganki «Ushbu o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olganligim uchun to'la mustaqillik bilan saltanat taxtiga o'tirdim. Uz tajribamdan sinab bildimki, agar qaysi bir podshoh shu o'n ikki narsaga ega bo'lmas ekan, saltanatdan bebahra qolur»².

U davlat boshlig'i o'zining qat'iy so'ziga va mustaqil fikriga ega bo'lmoqligi, masalalar yechimini topishdan avval yon-atrofdagi kishilarning fikrini inobatga olsa-da, so'nggi so'zni davlat rahbarining yolg'iz o'zi hal qilishi, turli gap-so'zlarga uchmasligi, barcha bilan yaxshi munosabat o'rnatib bilishi kerak deb hisoblagan. Amir Temur hukmdorlik ishini nozik va murakkab masala, unga sherik bo'lishni istovchilar yohud undan ustun bo'lishga intiluvchilar ko'payishi mumkin, davlatni laqmalik bilan boshqa mansab va molparast pastkash kimsalarning qo'lga topshirib qo'ymaslik kerak, deb bilgan.

Malumki, kuchli davlat barpo etmoqlik uchun bevosita rahbar shaxsninggina adolatli va komil inson bo'lishi yetarli emas, yuksak tarakkiyotga erishish uchun uning atrofidagi rahbarlar ham o'z kasbining ustasi, fidoyi va halol bo'lishlari

kerak. Xodimlarni to'g'ri tanlagani va ularning kuch-quvvatidan davlatni boshqarishda foydalangani Amir Temurning eng muhim yutuqlaridan biri edi.

Amir Temur ayniqsa vazirlar masalasida adashmaslikka intilgan. U hushyor podshoh «qoshida adolatli vazirlar tutsin, toki podshoh zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin. Agarda vazir zolim bo'lsa, ko'p o'tmay saltanat uyi qulaydi»¹ deb talim bergan.

Amir Temur mamlakatda hukmdor chiqargan buyruq va qarorlar faqat uning ixtiyorida bo'lishi kerak deb hisoblagan va o'zining boshqaruv faoliyatida bu qoidaga amal qilgan. Bizningcha ushbu davlatchilik talimoti davlat hokimiyatini amalga oshirishning eng muhim usullaridandir. U qonunlar va ularning ijrosini taminlash xalqning davlatga nisbatan hurmatini belgilaydi deb bilgan. Ushbu talimot orqali Sohibqiron Amir Temur o'zi kurgan davlatining obro'-etiborini kuchaytirish, jamiyat va davlat o'rtasidagi muvofiqlikni saqlashga intilganini anglash mumkin.

Amir Temur davlat rahbarini davlat kudratining ramzi deb tushungan va uning ozgina salbiy hatti-harakati ham ommaga tez tasir ko'rsatishini yaxshi anglagan. Shuning uchun davlat rahbari har qanday sharoitda ham u o'zi chiqargan qonunlarning amalda ijrosini taminlash shart deb tushungan. Shu tufayli qonunlarga rioya etishda avvalo uning o'zi va oilasi xalqqa o'rnak bo'lgan.

Demak, hukmdor hox kichik bo'lsin har ishdan ogoh bo'lishi lozim. Loqaydlik, sovuqqonlik va davlatni boshqalarga ishonib topshirib ko'yish xalqning, davlatning va kolaversa davlat rahbarining halokatiga sabab bo'lishi mumkin.

Amir Temur o'z davridayoq hokimiyat jilovini o'z qo'lida mustahkam ushlagan bo'lsa xam hokimiyatni o'z xodimlariga bo'lib berish yo'lidan borgan. U hokimiyatni bo'lib berish bilan mamlakat barqarorligini saqlashga intilgan. Bundan Amir Temurning mamlakat ichkarisidagi muxolif kuchlarga nisbatan qo'llagan taktikasini anglab yetish mumkin. Uning fikriga ko'ra "saltanat ishlarini ishonchli

¹ Низомиддин Шомий. Зафарнома...- Б.81.

va mo'tabar bir necha kishiga bo'lib berish lozim. Shunda har biri o'z ishiga bog'lanib, saltanat taxtiga ko'z olaytira olmaydi».

U mansabparast va molparast amaldorlarning o'z maqsadlariga yetishish uchun har qanday yo'lga kirishi, hatto buning oqibatida korrupsiya jinoyati kelib chiqishi mumkin deb hisoblagan.

Amir Temur davlat rahbari davlat boshqaruviga bog'liq masalalarni olimlar va davlat arboblarning maslahatiga tayanib va kengashlarda ko'rib

chiqib, so'nggi nuqtada birovning fikriga ergashmay o'zi hal qilishi, shoshmay, mulohaza bilan ish tutishi lozimligini takidlagan¹.

Sohibqiron davlat arboblarning dushmanlari, hasadgo'y va tuhmatchi kishilar ko'p bo'lishini, ba'zan esa amaldorlar o'z vazifasini suiste'mol qilishi mumkinligini ham yaxshi bilganki, hukmdor o'z qo'l ostidagilar haqidagi gaplarni eshitishi, ularni aybi isbotlangandagina jazolashni uqtiradi va bu masalada nozik va ehtiyotkor ish tutishga chaqiradi.

Uning fikricha, «podshoh haybati sipohu raiyat ko'nglida shunday o'rnashgan bo'lishi kerakki, uning amr-farmoniga hyech kim qarshilik qilishga jur'at etolmasin, itoat va tobe'lik qilsin, isyon ko'tarmasin».

Sohibqironning fikricha, podshohning haybatli ko'rinishi siyosat bilan bog'liq bo'lib, u albatta oddiy xalqdan ajralib turihi kerak. Qadimgi podshohlarning hukmdorlik salohiyatini o'rgansak, ularning ham haybatli ko'rinishga intilganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, Misr fir'avnlari o'zlarini xudo darajasiga ko'tarib narigi dunyoda rohat-farogatda yashashlari uchun osmono'par ehromlar qurdirganlar. Qadimgi Xitoyda ham hukmdor Osmon xudosining o'g'li deb tushunilib, ilohiylashtirilgan. Davlat rahbari haqidagi bunday tushunchalar ko'plab davlatlar tarixiga xosdir. Sohobqironning davlat rahbari xaybati haqidagi fikri shuni ko'rsatadiki, agar u oddiy bo'lib yursa va o'zini haybatli tutolmasa, amaldorlar va xalq undan cho'chimasligi mumkin. Ma'lumki, Sohobqiron xalqni «qo'rqinch va umid orasida saqlagan»ligini ko'p bora takrorlagan. Uningcha, fuqarolar avvalo davlatning majburiy kuchini va davlat rahbarining bemisl kuch-qudratini, amaldagi qonunlarni buzishdan

qo'rqmoqligi, sodir etilgan jinoyatga qarshi muqarrar ravishda jazo belgilanishini, jamiyat oldidagi javobgarlik, majburiyat va burchni anglab yetmoqligi kerak. Podshohlikning muhim sharti shundaki, «podsho majlis ahlidan ogoh va - hushyor bo'lsinkim, ular ko'pincha ayb axtarib, gapni tashqariga tashiydilar, podshohning so'zidan, ishidan vazirlarga, amirlarga xabar berib turadilar»¹.

Amir Temur hukmdorni ogohlikka da'vat etar ekan bir voqyeani misol keltirib: «O'zimning xos majlisimdagi bir qancha suhbatdoshlarim vazirlar va amirlarimning josuslari bo'lib chiqdi» deydi.

Amir Temur taxt uchun ko'z tikkanlar hasadgo'ylar, tuhmatchilar ko'proq mansabga intilishini yaxshi bilgani bois, ularga nisbatan loqayd bo'lish davlatni xavfu xatarga tashlash bilan teng ekanligini merosxo'rlariga ta'kidlab, davlatni saqlash uchun doimo extiyotkor va sergak bo'lishga chaqiradi.

Amir Temur axloqqa va yuksak manaviyatga asoslangan davlat tuzgan edi. Uning davlat boshqaruv qoidalari insoniylik poydevori ustida qaror topganligi uchun xam bu kadriyatlar bugungi davlatchilik ananalarimizga ham moye keladi. Sohibqiron fikricha hukmdorda shakllangan fe'l-atvor ham muhim masaladir. Har kimga bir xilda odil ko'z bilan qaray bilish, avvalo rahbarlarga zarur bo'lgan eng muxim sifatdir. U shunday degan: «Men sifatlarimning eng avvali deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil jiddiyat va odil qarardim, hyech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag'aldan ustun qo'ymasdim»².

Uning fikricha davlat rahbari bo'lib o'tgan dilxiraliklarni butunlay unutishi, o'z fuqarolariga nisbatan kek saqlamasligi kerak.

Sohibqiron o'z avlodlarini ogohlantirar ekan, haqqoniylik va adolat hukmdorga bosh mezon bo'lishi shartligi, aks holda uning davlati tanazzulga yuz tutishini ta'kidlaydi.

Amir Temur barcha so'zlarida doimo haqiqatgo'ylikka amal qilgani, haqiqatni yolg'ondan ajrata bilgani uning muhim yutuqlaridandir.

¹ Темур тузуклари... - 87.

² Амир Темур Курагой. Зафар йўли. А. Аҳмедов таржимаси. -Т.: Нур, 1992. - Б. 9.

Amir Temur hukmdor hamisha vadasiga vafo qilganini aytib o'tgan: «Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim, hargiz va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim», «xaloyiq qaysi malikning buzilmas ahdu-paymoniga va vazifasiga suyansa, uning mulki doimo obod, lashkari ko'p buladi»

Amir Temur boylik orttirish maqsadidagina taxtga o'tirgan podshoh albatta tanazzulga yuz tutadi deb tushungan. Amir Temur o'z qaynog'asi va yaqin do'sti Amir Husayn bilan do'stona munosabatlarining buzilishiga Amir Xusaynning molparastligi va hasadchiligi sabab bo'lganligini, shu orqali amir Husayndan xalqning ko'ngli qolganligini misol keltirib bunday illatlar davlat rahbarining el-xalq orasidagi hurmat-etiborini tushishiga olib kelishini aytib o'tgan.

Amir Temur hukmdorning muqaddas burchlaridan biri o'z xalqining moddiy ahvolini yaxshilash deb bilgan. «Qaysi bir podshoh o'z raiyati va arkoni davlati moliga tama' qilsa, u devor ustida turib, o'zi turgan devorning ostini kovlab bo'shatgan kishiga o'xshaydi. Agar devor qulasa, u kishining xalok bo'lish xavfi bordir», - deb tushungan.

Amir Temur tushunchasiga ko'ra, podshoh biror gunohkorning gunohini kechirsa, bu bilan fuqarosiga rahm qilgan bo'ladi. Agar u barcha qilmishlarida haqqoniyat va adolat bilan ish tutib, o'z fuqarosiga rahm-shafqatli bo'lsa, uning qudrati ortadi, aksincha esa uning qudrati tanazzulga yuz tutadi. «Ana shularga ko'ra,-deydi, u- men bir qo'limda adolat shamini va ikkinchi qo'limda begarazlik shamini tutib, ham ikki sham bilan butun umr bo'yi o'z yo'limni yoritib yurdim. Barcha qilmishlarimda ana shunday adolat qoidalariga rioya qildim»¹.

Sohibqiron podshoh qudrati «Movarounnahr uzra yozilgan ulkan bir chodirga o'xshaydi. Bu chodirni ko'tarib turuvchi ustunlari-adolatdir; chodirni tortib turgan arqonlar-insofdir; chodirni mustahkam tutib turgan qoziqlar esa-haqiqatdir.

Xuddi qoziqlar va arkonlar chodirni tutib turganidek, hukmdor shu uch sifati bilan qudratini tiklab turmog'i kerak»¹, - deb bilgan. Amir Temurning davlatchilik talimotida adolat, insof va haqiqat bir-birini to'ldiruvchi va davlat boshqaruvining asosini tashkil etuvchi rukn hisoblangan.

Sohibqiron o'z davlatchilik talimotida davlat rahbariga pand beruvchi ikki illat haqida haqida gapirib «qaysi bir hukmdorda ushbu ikki narsa jam bo'lsa, unda hyech ezgulik bo'lmaydi: birinchisi, jismoniy lazzatlar bilan nafsini qondirishga goyatda berilish; ikkinchi, qulay imkoniyat tugilganda fursatni boy berish»" ekanligini alohida takidlagan. Tarix saboklari shuni ko'rsatadiki, hukmdor o'z shahvoniy nafsini qondirishga berilsa, uning davlati parokanda bo'ladi, xalq nafratiga uchraydi.

Amir Temur hyech qachon qilinishi kerak bo'lgan ishini vaqtdan kechiktirmagan. Amir Temur «ishni kechiktirishda ofat ko'pdur»² deb bilgan. Amir Temur «aqli kishi bugungi kunni ertaga qo'ymaydi, chunki erta o'z ishini o'zi bilan olib kelishini aytyb «bir ishni bajarishga kirishar ekanman, oldindan chora-tadbirlar belgilab qo'yardim»³ -deya alohida takidlagan.

Amir Temur turli chora-tadbirlar qo'llab dushmanlarini do'stga aylantira olgan. Bu esa Sohibqironning bagrikengligini, kechiruvchanligini, oqko'ngilliligini ko'rsatadi. Bizningcha, bu sifat hukmdorlar uchun muhim masaladir. Bu haqda «Temur tuzuklari» da maxsus «do'stu-dushmanga muomila - qilish tuzugi bor: «Turon mamlakatini fath etgan kunim va poytaxt Samarqandda saltanat taxtiga o'tirgandan so'ng, do'stu-dushman bilan muomilada bir tekis yo'l tutdim. Menta yomonlik qilgan, hiyla-makr ishlatib jang maydonida menga qarshi qilich yalong'ochlagan Badahshon amirlari, turku tojik qilmishlaridan qo'rquvda edilar. Chorasiz qolib iltijo bilan mening panohimga kelganlarida ularga shunday yaxshilik qildimki, mening inoyatim va hayr ehsonimni ko'rib ular sharmanda

¹ Низомиддий Шомий... - Б. 73.

² Низомиддин Шомий... - Б. 150-151.

³ Темур тузуклари... - Б. 26.

bo'ldilar. Kimni ranjitgan bo'lsam, ehsonu-inomlar bilan ko'nglidagi xafagarchiliklarni chiqardim va martabalariga qarab imtiyozlar berdim».

U dushmanlikka intilgan aqlli kishilarni tarbiyalab, ularning kuch va salohiyatidan davlat ishlarida foydalandi. Uning rahbarligida shakllangan mutaxassislarning sifat va soniga nazar solsak, ularning eng mashhurlari Amir Temurning sobiq dushmanlari edilar. Uning aytishicha, «Aqlli dushman joxilunodon do'stdan yaxshiroqdir».

Amir Temur hukmdorning atrofida halol va vafoli do'stlari bo'lmog'i va ular rahbarga har tomonlama xolisona yordam bermog'i kerak, yaqin do'stsiz hukmdorning tanazzuli tezlashadi deb tushungan. Amir Temurning yuksak manaviyati uning boshqaruvida uyg'unlashganligi asosida mustahkam davlatchilik asoslari kurilganligi jamiyatning barcha sohalarida Uyg'onish pallasiga o'tishda muxim omil bo'lgan degan xulosalarni chiqarishimizga imkon beradi. Uning hukmdor to'g'risidagi qarashlari, boshqaruv san'ati o'zida boshqaruv konsepsiyasini jamlaydi. va bizningcha uning ushbu davlatchilik talimoti alohida mavzularda o'rganilmog'i kerak.

Amir Temur har bir ishda davlat rahbari xalqqa o'rnak bo'lmog'i kerak, deb tushungan. Sohibqiron harbiy yurishlarda ham, davlat yumushlarida ham o'zi xalqqa o'rnak bo'lganiga manbalar shohidlik beradi.

Amir Temur buyuk insoniy fazilatlaridan bo'lmish hayru ehsoni, mehru muruvvati orqali ko'plab kambag'allarning rahmatiga sazovor bo'ldi, inchunun uning o'zi orqali davlatiga ham xalqda katta hurmat uyg'ondi. Bu esa davlat boshligining katta yutug'idir.

Demak, hukmdor yaxshi bilmog'i kerakki, uning qilgan ishlari ommaning davlatga xurmati yoki nafratini belgilaydi, u davlat yuzi, kuch-qudrati timsolidir.

Men imon bilan qudrat buyuk onadan tugilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustaxkam imonga tayangan qudrat buyuk bo'lador»¹, - deb imon va qudrat uyg'unligi aytib o'tgan.

Uning nabirasiga aytgan hukmdorlikka tegishli pandu o'gitlarida ham davlat boshligining nimalarga etibor berilishi lozimligi uqtirilgan: «xodimlar va

lashkarlarga maosh, in'om, ukalko va suyurgol bermok xayrli ishlarga keng yo'l ochish uchun qilinib, isrofgarchilik va haddan oshirmoq holatidan o'rtamiyonalik tomon ogmok lozim, toki ishlarning borishi to'grilik qonunidan chetga chiqmasin, to'sqinlik qiluvchi sabablar bir-biriga ulanib ketmasin, dil dardini keltirib chiqarmasin va pushaymon bo'lishga to'g'ri kelmasin»¹.

Uning so'zlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, podshoh har ishda ayniqsa iqtisodiy masalalarda o'rtamiyona ish tutmogi kerak. Ortiqcha ko'p yoki kam mablag sarflash ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Uning qonundan chetga chiqishi halokati belgisidir. Davlat rahbarining ishlariga to'sqinlik qiluvchi sabablar bo'lmasligi kerak, «ana shundagina zulm qilmoq va xasislikdan uzoq bo'ladi, ortiqcha harajat va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydi. Alloh taolo aytmish (baxillik bilan) qo'l-ingizni bo'yingizga bog'lab ham olmang, isrofgarchilik qilish bilan uni butunlay yozib ham yubormang, (ya'ni) chiqim va kirimni bir me'yorda tutsin, shundagina yurti (boshqarishdagi) barcha zarur ishlar unga oson bo'lg'ay va zulm qilmoqqa hyech bir zarurat qolmag'ay» .

Bugungi tadqiqotlar Amir Temur davlatining taraqqiy etishida aniq rejali chiqim-kirimlar yani moliya masalalarining to'g'ri tashkil etilishi muhim o'rin tutganligini ko'rsatmoqda. Amir Temur fikricha, ana shundagina mamlakatda adolat o'rnatilishi mumkin, chunki xazinaning sobit ushlab turilishi xalqdan ortikcha soliq yig'ilishiga ehtiyoj tug'dirmaydi, xalq ortiqcha toliqtirilmaydi, demakki, ommaga zulm qilinmaydi.

U o'zining suyukli nabirasi amirzoda Umar nomiga bitilgan nishonda yana shuni ta'kidlaydi: «Chegaralarga hayot sinoatlari bilan tanish, zamona hodisalari bilan egizak tug'ilgan xushyor va sergak, mardonalikda tanilgan dalir va tajribali kishilarni ko'ysin»

Bu so'zlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Amir Temur chegara viloyatlarga halol, hushyor, zamon ikir-chikirlarini yaxshi tushunadigan, qo'rqmas kishilarni qo'ygan va ularga vatan xavfsizligi, sha'nini himoya qilishni topshirgan.

¹ Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли.- Б. 11.

«Ul joylarni-deydi u,-fahm-farosat va shijoat bobida yetuk kishilardan hyech kachon holi qoldirmasin. Chunki to'satdan biror kor-hol bo'lib qolsa yoki qandaydir zarurat tugilsa, zudlikda g'aflat oqibatlaridan himoyalangan bo'ladi hamda nadomat sharmanda yengi va malomat tamgasi unga bitilmaydi».

Amir Temur barcha temuriy hukmdorlarga xam davlatni boshqarish, hukmdorlik sirlarini o'rgatdi va ularni hukmdor sifatida tarbiyaladi.

Manbalar shohidligiga ko'ra, ularning har biriga nishon bitilib, rahbar qilishi lozim bo'lgan ishlar ko'rsatilgan.

Amir Temur xammada ham davlat rahbari bo'lishga arzigulik layoqat va iqtidor bo'lavermaydi deb bilgan. Bu fikrlar koida sifatida olimlar tomonidan ham ishlab chiqilgan. Amir Temur ham mamlakat rahbarligini tasodifiy shaxsning qo'liga topshirib qo'yishdan saqlanishni eng muhim masala deb bilgan. O'ta diktator, o'ta pessimist va manipulyator (o'rtacha ish olib boruvchi va xodimlarni tez-tez almashtirib turishga harakat kiluvchi) rahbar ham boshqarishga yaramaydi.

Shuningdek davlat rahbari o'z davlati va fuqarosiga sadoqatli bo'lib o'z xodimlarini birovlarining oldida obro'sini to'kmasligi va ularni ximoya kila olishi kerak. Davlat rahbarining optimist bo'lmog'i va boshqalarning fikrini inobatga olishi uning yutuqlarini yana-da oshiradi. Amir Temur boshqalarning fikrini biz bugungi kunda tariflayotgan delfi usuli (bir-birini tanimaydigan va bexabar bo'lgan turli. kishilarning muammoga tegishli fikrini o'rganish va ularning pozisiyasini yaqinlashtirish) orqali o'rgangan va jamiyatning ijtimoiy fikri orqali o'z boshqaruvini muvofiqlashtirishga intilgan.

Amir Temur rahbar kishi xushmuomala, xodimlariga etiborlili bo'lishi kerak deb bilgan. U raxbar hyech qachon maqtovg'a uchmaydi, u maqtovsiz ham o'z imkoniyatlarini yaxshi biladi deb tushungan. U ortiqcha qattiqqo'llik va ortiqcha yumshoklik ham boshqarish ishida to'g'ri kelmaydi deb bilgan. Chunki kattiqqo'l rahbardan hamma ko'rkadi, yumshoklik esa uning hurmati yo'kolishiga, kishilar hohlagan ishini qilishiga, boshboshdoklikka olib keladi deb tushungan. Amir Temur davlat rahbari sifatida ana shu qoidalarga amal qilgan, asl manodagi murabbiy va talabchan davlat rahbari edi.

Uning nazarida xukmdor nozik strategik sezgiga ega bo'lmog'i, ishining oqibatlarini avvaldan ko'ra bilmogi kerak. «Kunduzlari tajribali va dono kishilar bilan turli mamlakatlarni zabt etish shatranji ustida bosh qotirdim. Kechalari bo'lsa to'shagimda yonboshlab olib mamlakat ishlarini kanday yurgizish kerakligi haqida o'yladim va ularni bajarish vositalarini o'zimcha tasavvur kilib ko'rdim. Sipohiylarim bilan qanday muomala qilishim to'g'risida fikr yurgizib, qaysi birini qanday tarbiyat qilishim kerak, qaysi ishni qay biriga topshirsam, xato qilmagan bo'laman deb, har ishni oldi ketini o'ylar edim»¹ deydi u.

- Sohibqironning ushbu so'zlaridan uning kuchli siyosatchi va psixolog bo'lganligi anglashiladi. Chunki davlat rahbari hammaga ham bir xil muomala usulini qo'llayvermaydi. Davlat boshlig'i o'z xodimlarining xarakteridan kelib chiqib ularning ko'ngliga yo'l topadi, davlat uchun ish beradigan kishilarni qaytadan tarbiyalaydi.

Amir Temurning xalq va amaldorlar oldida saroyda o'zini qanday tutganligi, haybati uning kuchli xarakter sohibi bo'lganidan, mustahkam irodasidan, kuchli psixologiyasidan dalolat beradi.

Amir Temur haqida nafrat va alam to'la satrlar muallifi Ibn Arabshoh ham uning g'aroyib fel -atvori haqida shunday satrlarni yozib qoldirgan: uning «ikki ko'zi bamisoli ikki sham bo'lsa-da, shodligi bilinmas, yo'g'on ovozli edi; u o'limdan qo'rqmas, yoshi saksonga yetgan bo'lsada, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi zich qalin tosh misoli qattik edi.

U xazil-mazah va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgiyu ko'ngil hushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan bironnarsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi; «u (bo'lib) o'tgan ishga aziyat chekmas va o'ziga hosil bo'ladigan (yutuq)dan shodlanmas edi. Uning majlisida uyatsiz so'zlar, qon to'kish, asir olish, nahbu g'orat qilish va haram (haqi)ga haqbrat gaplar bo'lmasdi.

Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo'lib, jasoratli kishilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi.

¹ Темур тузуклари... - Б. 117

U betakror (nishonga uruvchi) fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz (darajada) baxtli, ulug'vorligi (o'ziga) muvofiq, qat'iy azm bilan so'zlovchi, (boshiga) kulfat tushganda ham haqgo'y kishi edi.. U (birovdan) bir gai eshitganda dalil talab qiladigan, zimdan qarash va ko'z ishoratlarini sezadigan idrokli kishi edi. U sinchkov bo'lib, yuz beradigan barcha ishni ko'rib-bilib turar edi. Uning nazarida aldovchining aldovi yashirinib qolmas va firibgarining firibi o'tmas, o'z farosati bilan haqgo'y va yolg'onchini ajratar edi. O'z ziyrakligi tajribasi bilan chin (haq) nasihatgo'ydan soxta (nasihatgo'yni) idrok etar; o'z afkori bilan sal bo'lmasa «uchar yulduzni to'g'ri yo'lga boshqarar, o'z farosati va mulohazalari bilan har-bir bexato sayyora o'qini o'z orqasidan ergashtirar edi»

Shuningdek muarrihning fikricha, u biror ishni boshlasa «u undan aslo qaytmasdi yoki u biror narsaga qasdlansa, beqarorlik, yengiltaklik va sustkashlikka mansub bo'lmaslik uchun o'z qat'iyati jilovini u narsadan sira burmasdi»¹.

Demak, Sohibqiron hukmdor sifatida o'z zamondoshlari orasida ana shunday kuchli taassurot qoldirgan va aynan hayotda ham shunday kuchli shaxe bo'lgan.

L.Keren ham uning psixologik portreta, xarakteri haqida to'xtalib jumladan shunday degan: «Sohibqiron bilan muloqotda bo'lgan har kimsa uning na xastalik va na keksalik so'ndira olgan zavq-shavqidan, o'zini tutishidan, odamlar va ro'y berayotgan voqyea-hodisalardan yaxshi habardor ekanligidan hamda dunyoda hyech narsa raxna sololmaydigan kuchli irodasidan xayratga tu shardi»².

O'zining so'nmas irodasi va xarakteri tufayli Amir Temur o'z yurishlari va siyosatida yengilish nimaligini bilmagan. Chunki unga ishning borishida ko'ra natijasi muhimrok bo'lgan va diqqat etiborni muvaffaqiyatli natijaga erishishga qaratgan. U o'zining fe'l-atvori bilan yon atrofdagilarga ta'sir o'tkazishni, uning kayfiyati askarlarga qattiq ta'sir qilishini yaxshi anglagan va eng tahlikali, ogir damlarda ham doimo bardam bo'lishga intilgan.

¹ Керен Л. Амир Тему́р салтанати... - Б. 162.

² Ибн Арабшoқ. Амир Тему́р тарихи... - Б.65-66

L.Keren u haqda fikrlarini davom ettirib «Amir Temur o'zi bilmagan biror shaharga tashrif buyurishdan oldin shu shaharning maydonko'chalari va ko'zga ko'ringan a'yonlarining hayoti, yurish-turishlari to'g'risida ipidan-ignasigacha xufyona bilib olardi.

Shaharga kirgach esa, u ko'chalarda bemalol sayr qilar va mahalliy a'yonlardan birini chaqirib, barchaning ko'z o'ngida undan faqat shu kimsagagina ma'lum bo'lgan voqyea va munosabatlar to'g'risida xuddi eski tanishlardek surishtira boshlardi» deydi. «Ana shunda suxbatdoshi hayratdan yoqa ushlar Amir Temur ro'y bergan voqyealarning shohidi bo'lgan ekan, degan xayolga borardi» deb uni tasdiqlaydi Ibn Arabshoh.

Manbalardagi bu malumotlar bizga davlat rahbari o'z davlati va qo'shni davlatlardagi asosiy voqyealar, kuchli shaxslar, shahar va qishloqlar hayoti, jug'rofiyasini yaxshi bilmog'i va shunga monand siyosat olib bormoqligi lozim degan xulosaga kelishimizga olib keldi.

Shuningdek, u o'zining tush ta'biriya, hayotida sodir bo'lgan g'ayri tabiiy hodisalar haqida ham o'z atrofdagilariga xabar berib turgan va bu albatta xalk orasiga shamolday yetib borgan. Bu nozik taktikalar ham uning san'atkor hukmdor bo'lganligiga dalildir.

Uning raqibiga qilgan psixologik hujumlarida, xatlarida ham o'zining Alloh tomonidan yuborilgani va bu missiyasida omad unga albatta yor bo'lajagini oldindan qayta-qayta aytib raqibini dahshat va xavotirga solardi.

Amir Temur chetdan viqorli va salobatli ko'rinsa-da, u tabiatan sodda va kamtar hukmdor edi.

U zafar chog'ida yog'dirilgan maqtov va tabriklarga havolanmadi, balki ularga «yolg'iz xudoning irodasi bilangina biz bu zafarga erishdik» deb javob berdi.

Xristian dunyosining vakili olim Xerman Vamberi undagi bu hayratomuz sifatlarni seza bildi: «Osiyoning yarmini titratib turgan, taxti ostida qancha shohlik

xonadonlarini yakson qilgan bu odam o'zining siyosiy ahdlarini quyidagicha, juda sodda iboralar bilan boshlar edi: «men tangrining quli Temur shuni aytamanki...».¹ Nizomiddin Shomiy Amir Temurning mamlakat va davlat krnun-qoidalarini mardonalik kuchi bilan, saodatli tole'i barakoti, takdirga muvofiq tadbiri va yaxshi kechmishlar bilan mustahkamlaganligi haqida yozib qoldirgan.

Amir Temurdek buyuk davlat arbobi insoniyat tarixida kamdan kam uchraydigan hodisadir. Teranroq qaralsa, uning xarakteri, psixologiyasi, ilmi, solohiyati, tafakkuri Sohibqironning tug'ma hukmdor bo'lganligini ko'rsatadi.

Amir Temurning davlat rahbari haqidagi talimotini temuriylardan Shohruh Mirzo, Ulugbek Mirzo, Husayn Boyqaro Mirzo va boshqalar davom ettirdilar va davlatni ancha uzok vaqt boshqarishga muyassar bo'ldilar. Jumladan, Shohruh Mirzo ham Amir Temurning davlat boshqaruvini takomillashtirishga intildi.

Uning o'z farzandiga aytgan quyidagi nasihatlar fikrimizga dalildir: «yarog'-aslahamizning ojizligi va holatimizning nuqsonligiga qaramay bizni tanlash nazari bilan taqdirlab, farmonimizni olam mamlakatlari uzra joriy qildi... Endi davlat va podshohlik qadrini bilib ilohiy ne'mat shukrini bajo keltirish hamda insof va adolat eshiklarini hojatmandlar yuziga ochiq tutgin, olam obodonchiligining sababi va odamzod rizqining vositasi bo'lmish dehqonlarni adolatsizlikdan himoya qilib, adlu insof bilan o'zingcha yaqin qilgin. Davlat chegaralarining nigohbonlari va mamlakat ichkarisining ko'riqchilari bo'lgan lashkarlar toifasini ochiq yuzlik hushmuomalalik bilan o'zingga mute va itoatkor qilib ularning yollanma haqlari va maoshlarni belgilangan vaqtda to'la yetkazib turgin, jonsiporlik shartlarini . .bajarishda jiddu-jahd ko'rsatganlarga in'omni oshirgin va ba'zi tashlab qochuvchilar yo'lini tutganlarga saza berib jazolagin; xullasi barcha hollarda «ishning yaxshisi miyonasidir» degan hadisga amal qilib haddan ortiq yoki keragidan oz chora ko'rishdan ehtiyot bo'lgin, chegaralarga ish

¹ Вамбери Херман. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. - Т.: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. - Б. 56

ko'rgan va tirikchilikning achchiq-chuchugini totgan kishilarni tayin qilib, u yerlar qal'alarning mustahkamligi borasida zaruriy choralarni ko'rgin»¹.

Biz komil ishonch bilan ayta olamizki, Amir Temurning davlat rahbari sifatida o'zi tuzgan davlat taraqqiyotida bemisl o'rni bor. Ushbu saboqlar davlat boshliga mukammal davlat qurishning muhim vositasi bo'lib, u davlat ijtimoiy-siyosiy organizmining yuragi hisoblangan va barcha olib borilgan islohotlar bevosita Amir Temurning rahbarlik saloxiyati orqali amal ga oshirilganligini ko'rsatadi. Demak, Amir Temur davlat rahbari davlatning ichki va tashqi vazifasini amalga oshirishdagi vositachi deb bilgan va davlat rahbarini tanlash masalasini davlatchilikning yarim yutugi deb bilgan.

Amir Temur va uning vorislarining davlat rahbari sifatidagi roli va ularning siyosiy talimotlarini alohida tadqiqotlarda o'rganish bugungi kunimiz uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi, deb bilamiz.

¹ Низомиддин Шомий. Зафарнома... -Б. 81

II BOB.”TEMUR TUZUKLARI”NING MANBA SIFATIDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI

II.1. ”Temur tuzuklari” davlatchilik tarixini o’rganishda muhim manba sifatida

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bu tariximizni ko’z o’ngimizda yaqol gavdalandirishdir. Bunda bizga tarixiy asarlar yordamga keladi. Ularning ichida eng buyuklaridan biri bu “Temur tuzuklari”dir. Bu asar bugungi kundagi har bir rahbardan tortib, eng quyi pog’onalalar uchun dasturul’amal desak adashmaymiz. O’tmishda o’zbek davlatchiligi tarixida saltanat ishlarini qoyilmaqom yurgizadigan rahbarlarni tanlashda tajribalar yetarlicha bo’lgan. Bugungi kunimiz uchun ham ularning ahamiyati bir qadar yuksak va o’rnak olsa bo’ladigan jihatlari juda ko’p.

Ulug’ bobomizning o’sha davrda Osiyo va Yevropada ro’y bergan siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda, voqea-hodisalarda hal qiliuvchi rol o’ynagan. Uning bu jarayonlardagi rolini hozirgi kundagi tarixchi va siyosatchilar, harbiy soha vakillari, balki badiiy ijod ahlining ham nazaridan tushgani yo’q. Amir Temur shaxsini idrok etish-tarixni idrok etish demakdir.

Amir Temurni anglash- o’zlikni anglash demakdir. Amir Temurni ulug’lash –tarix qariga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qutratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir.¹ Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilm-fan, san’at va me’morchilikka oid qarashlari, hayotning ma’no-mazmunini, insonni ulug’laydigan ezgu ishlar haqida bildirilgan fikrlari, har bir masalada uzoqni ko’zlab ish tutishlari, xalq manfaatlarini o’ylashlari kabi fazilatlarini alohida ta’kidlash o’rinlidir. Amir Temurning beqiyos azmu-shijoati, mardlik va jasorati bilan Movarounnahr zaminida mo’g’ul zulmiga barham berib, xalqimizni qaramlik iskanjasidan xalos etgan, tarqoq va parokanda el-ulusni birlashtirib, „mustaqil va qudratli davlatga asos slogan bu

¹ “Temur tuzuklari” .T-2011. 7-bet.

ulug' siymoning mazkur kitobda ifoda etilgan g'oya va qarashlari nafaqat o'z davri, balki bugungi va kelgusi avlodlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning birinchi Prezidentimiz I A Karimov bu kitob haqida shunday deydi: "Tuzuklar"ni o'qisam, xuddiki o'zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. Har bir satri bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoiy inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o'y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba'zan esa dardli va iztirobli kechinmalari bilan sug'orilgan bu asarda qanday teran ma'no mujassam ekanligini ma'rifatli kitobxon yaxshi anglaydi albatta. Men o'z ish faoliyatimda bu kitob takror-taror murojat qilib undagi hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlarining qancha to'g'ri ekanligi ko'p bor ishonch hosil qilganman.

Masalan "tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshiroqdir" degan fikrlari bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekani barchamizga ayon. Yoki u zotning "Saltanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini qilich bilan bajo keltirishi zarur" degan ko'rsatmalari hozirgi notinch zamon uchun, XXI asr siyosatdonlari uchun ham har jihatdan ham ibratli fikrlar borligini ta'kidlash joiz. Amir Temur bobomiz bunday chuqur ma'noli so'zlari, ayniqsa, "Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqar" degan hikmati insonni doimo aql-idrok, ilmu ma'rifat asosida yashashga da'vat etishi bilan e'tiborlidir.

Ulug' ajdodimiz, garchi buyuk bunyodkor va jahongir bo'lsa-da, kuch-qudrat zo'rlik va zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda, hamjihatlik va hamkorlikda ekanligini nihoyatda chuqur anglagan. Uning davlatni oqilona boshqarish, o'ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to'g'ri yo'l, tadbir topa olish qobiliyati, noyob aql-zakovati har qanday odamni hayratga soladi. Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibquronning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilimi va tajribalarini o'rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab yetishda

“Temur tuzuklari” bebaho ne’mat bo’lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi murakkab va tahlikali davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag’zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo’lishdek tahlikali vazifani o’z zimasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson uchun bag’oyat foydali ekani haqida ortiqcha gapirib o’tirishga hojat yo’q, deb o’ylayman.

Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni deyarli 500-600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda. SHu bois, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o’z asarlari va chiqishlarida «Sohibqiron tuzuklari» va «o’gitlari» ga tez-tez murojat qiladi, zero kelajagi buyuk davlat qurayotgan ekanmiz, o’tmishning ma’naviy tamoyillari bizni adolatli yo’llardan yuksak taraqqiyotga olib borishi, shubhasiz. Xuddi shu ma’noda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov yozuvchilar bilan bo’lgan suhbatida bu haqda zo’r mamnuniyat bilan quyidagilarni ta’kidladi: «Amir Temur tuzuklarini o’qisam, xudi bugungi zamonning katta-katta muommolariga javob topgandek bo’laman, shuning uchun strategiyani juda puxta o’ylash kerak. Balki otabobolarimiz qoldirgan merosdan foydalanib o’zimizga xos, o’zimizga mos strategiyani ishlab chiqish kerak bo’ladi»¹.

Ishonchim komilki, yoshlar bu kitobni mehr qo’yib, tushunib, chuqur anglab o’qisa, ularning qalbida milliy g’urur tuyg’usi yuksaladi, o’zining qanday buyuk zotlar ekanligini yanada chuqurroq his etib, hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo’lib voyaga yetadi. Shu ma’noda, “Temur tuzuklari” kitobining mamlakatimizda ona tilimizda yangitdan yuksak sifat bilan chop etilishi, hech shubhasiz, madaniy hayotimizda muhim voqeadir. Qadimiy va boy, shavkatli tariximiz, betakror merosimiz, azaliy qadryatlarimiz bilan qiziqadigan barcha kitobxonlarni anshu quvonchli voqea bilan chin dildan qutlab, bu noyob asar ularning hayotida doimiy ma’naviy hamrox bo’lib qolishini tiliayman, degan edi bizning birinchi Prezidentimiz. O’rta Osiyo xalqlari xususan, ajdodlarimizning qonun,

¹ Элни ватан маърифати бирлаштиради. И.А.Каримовнинг бир гуруҳ ёзувчилар билан учарашуви. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси 30 апрель № 8. 1993. 2-бет.

davlat va siyosatga jiddiy munosabatda bo'lganliklari zahirida insonni ulug'lash, insoniylikni qo'llash, jamiyatning barcha qatlamlarini adolat bilan chulg'ab, chinakam huquq asoslariga tayanadigan davlat yaratishdan iborat maqsad yotar edi. Shuning uchun ham ajdodlarimizga rahnamo bo'lgan buyuk shaxslar davlatchilik borasidagi siyosiy, huquqiy qarashlarni bayon etuvchi ko'plab asarlar yaratganlar. Ular orasida Sohibqiron Amir Temurning "Tuzuklari"da ifoda etilgan davlat masalalariga oid yo'l-yo'riqlar, qonunlar tuzuklar alohida ahamiyatga ega. Buyuk davlat arbobining davlatchilik siyosatida, u yaratgan boshqaruv tizimi hamda davlatchilik an'analari mohiyati zaminida muayyan bir jugrofiy makon va jamiyatning turli imkoniyatlarini mahalliy xalq manfaatlari yo'lida yuzaga chiqaruvchi chinakkam tashkilotchilik yo'lini ko'ramiz. Uning davlatchilik borasidagi "Temur tuziklari"ni o'rganar ekanmiz, ularni har tomonlama tahlil etib ustivor yo'nalishlari to'g'risida muhokama qilishimiz kerak. O'zbek davlatchiligining muhim davri –Temur davlatining markazlashgan davlati edi. Saltanat quruvchisining fikricha, davlat birinchi galda mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini himoya qilishi, maslahat, kengash, tadbirkorlik, qonun-qoidalar va adolat bilan qa'tiy tartibda boshqarilishi kerak. Amir Temur saltanati, davlat tuzumi, boshqaruvi, sud tizimi va uning boshqaruviga oid muhim qoidalar va ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi tarixiy hujjatdir. Qisqacha aytganda, o'zining mazmun-mohiyati va xususiyatiga ko'ra o'z davrining harbiy-ma'muriy huquq kodeksi hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Temur va temuriylar davrining huquq manbalari qatoriga Temur tuzuklari bilan birga o'troq aholi hududlarida shariat qonunlari va odat huquqini ham kiritish, ularning ham amal qilganligini eslash o'rinlidir. Temur tuzuklarini mazmuni va tarkibiy tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir."Temur tuzuklari"ning birinchi qismi – harbiy yurishlar haqidagi tarixiy, geografik-avtobiografik qaydlardan iborat. Shuningdek, unda Amir Temurning o'z davlatini barpo etish, mustahkamlash, mukammal qurollangan qudratli qo'shin tuzish bobidagi rejalari va tatbiq etgan tuzuklari hamda maxsus jadvallar asosida

qo'shinning jangovar saflanish tartibi ham ko'rsatib berilgan. Jumladan, qo'shin qo'mondonlari, qabila va uluslar boshliqlari, vazirlar, oliy ruhoniy namoyandalar bilan markazlashgan davlat tuzish borasidagi o'tkazilgan kengash va tadbirlar bayon etiladi.

Binobarin, Amir Temur qo'shinni – davlatning yaxlitligi va qudratini belgilovchi tayanchi va kafolati, deb bilganligi bois, uni tashkil etish va mustahkamlashga asosiy e'tiborni qaratgan. «Temur tuzuklari»ning ikkinchi qismi – o'ziga xos harbiy nizomdan iborat. U kuchli davlatni qurish, qo'shinni tashkil etish, dushman qo'shinini engish hamda tinchlik davrida va harbiy yurish paytidagi boshqaruv masalalari yuzasidan amalga oshirilgan va keyingi avlodga o'git tariqasida aytilgan tuzuklardan tashkil topadi. CHunonchi, mazkur davrda feodal tarqoqlik va o'zaro janjallarga barham berish, mustahkam hokimiyat o'rnatish hamda mahalliy hokimlarning o'zboshimchaliklariga chek qo'yish, aholidan olinadigan soliqlar va majburiyatlarning aniq miqdorini belgilab qo'yish talab etilgan. Natijada, davlat boshqaruvini tashkil etish va odil sudlovni amalga oshirishga jiddiy ahamiyat berilgan. Unda quyidagi masalalar, jumladan: davlat daxlsizligini muhofaza qilish; hukmdor hokimiyatining cheklanmaganligi va mustaqilligi; vazirlarning majburiyati va vazifalari; ulus amirlari va tuman hokimlarining vazifalari; davlat kengashi; davlat xavfsizligi, jamoat tartibi va mamlakat osoyishtaligini saqlash; aholidan olinadigan soliq (xiroj va zakot)larning miqdorini belgilash; qo'shin qo'mondonlarini tayinlash, lavozimini oshirish, rag'batlantirish va ularga maosh belgilash; vazirlar, amirlar va sipohiy (harbiy askar)larning shaharlar, viloyatlar va mamlakatlarni zabt etishda ko'rsatgan jonbozliklarini rag'batlantirish; qo'shinning harbiy yurish va janglarda joylashuvi va uning ajratib turuvchi alohida belgilar kabi masalalar bayon etilgan. Davlat va saltanatimga bog'langan mening birinchi tuzugim shulkim, deb yozadi Amir Temur o'z tuzuklarida, -Tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim, har yerda har vaqt islom dinni quvvatladim.¹

¹«Temur tuzuklari». T-1996. 68-69-betlar.

Temur bu yerda o'zining dini va davlat borasidagi kengashlarida islomni bir vosita sifatida foydalanishni emas, balki uni xalq bilan davlatni yaqinlashtiradigan hamda davlatni xalq tizimiga uyg'unlashtiradigan kuch bo'lganligini nazarda tutib, davlatda islom dinini rivojlantirish lozim, deb hisoblaydi. Uning nazarida xalqdan ajralgan hokimiyat hech narsaga qodir emas. Shuning uchun uning fikricha: "Davlat agar din-u tartib asosida qurilmas ekan, to'ra –tuzukga bo'linmas ekan, unday saltanatning shukuxi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini islom dini to'ra va tuzuklari asosida mustahkamladim." Amir Temurning islomga va uning ulamolariga yuksak hurmati va uning ma'naviyatli musulmon sifatida davlatni islom qonun-qoidalari asosida tuzilishi ham Movarounnahrning diniy markaziga, taavvuf markaziga ayalnishiga olib kedi. Uning din rivojiga qo'shgan eng katta hissasi shu bo'ldiki, sayidlar orasidan layoqatli bittasini ahli islomga boshliq qilib tayinlashidir. Musulmonlarga diniy ta'lim berish uchun, xususan shariat aqidalari va islom dini ilmlaridan tafsir. Xadis, fiqhdan ta'lim berish uchun har bir shaharga olimlar va muddarrislar tayinlaydi. Temurbek shaxsi, uning davlat tizimi hamda askar boshliq faoliyatiga yaqin-yaqingacha bir tomonlama yondashib kelingan. Amir Temur haqida ilmiy ish yozgan tarixchi Ibn Arabshoh o'zining "Temur taqdirida taqdir ajoyibotlari" asarida Amir Temurga Chingizxondan hech kam bo'lmagan o'rta asr hukmdori deb ta'rif bergan. Aslida Temurning kelib chiqishi bo'yicha barlos urug'idan, ya'ni turkiy xalqlardan bo'lib, bevosita mo'g'ul xonlari avlodidan bo'lmaganligi uchun u o'zini xon deb atay olmas edi. Temubek o'z nomi bilan atalgan ulkan davlatga asos slogan bo'lsada, bu haqida o'zi shunday deydi "Bizlar mulki Turon, amiri Turkistonmiz, bizlar eng qadimgi va eng ulug' bo'lgan turklarning yetakchisimiz"¹ Yer yuzining deyarli to'rttdan bir qismiga teng bo'lgan yerlar bir kishining farmoni bilan, ya'ni Amir Temur farmoni bilan boshqarilgan . Temurning davlat gerbi uch

¹ Ziyodulla Muqimov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Samarqand–1998. 162–bet

doiradan iborat bo'lib, bu shakl tashqaridan okeanlar bilan o'rab olingan jahonning uch qismi Osiyo va Afrika, Yevropa hukmdori degan ma'noni anglatgan. Amir Temur saltanati, o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixida o'zining markazlashgan, mutloq monarxiya, yakka hokimlikka asoslangan imperiya davlati sifatida alohida o'rin tutadi. Amir Temur o'z davrigacha yaratilgan va davlatchilik qonuniyatlari sifatida shakllangan asoslar bilan bir qatorda, yana o'ta muhim jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va manfaatlarini ta'minlash tartiblarini yaratdi, xatto tabiiy ravishda din va shariatni birinchi o'rinda ta'kidlagani holda, ijtimoiy tabaqalarga bo'lgan munosabatni boshqa yo'nalish va masalardan ustun qo'ydi.

«Tuzuklarda» bayon etilishicha, Amir Temur davlatining asosini 12 ta ijtimoiy toifa tashkil etgan bo'lib, bu toifalar quyidagilardan iboratdir; 1. Sayidlar, ulamo, shayxlar; 2. Bilimdon, fozil kishilar, 3. Duogo'y, taqvodorlar, 4. Amirlar, qo'shin boshliqlari; 5. Sipoh va raiyat (qora xalq); Saltanat ishlari bo'yicha kengashishga loyiq kishilar; 7. Vazirlar, sarkotiblar va devon bitikchilari; 8. Xakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9. Muhaddislar (hadis olimlari) va roviylar (tarixshunoslar); 10. So'fiylar va oriflar; 11. Hunar va san'at ahli; 12. savdogar va sayyohlar.¹

Amir Temur davlatining, o'z saltanatining ijtimoiy-siyosiy tizimini yaratishda o'tmish tajribalariga tayangan bo'lsada, ulardan ko'r-ko'rona ko'chirmadi. Amir Temur chuqur mulohaza yuritadigan, uzoqni va orqa-oldini o'ylab ish qiladigan hukmdor bo'lganligi bois, davlat masalalarida kengashib va batafsil fikr yuritib, so'ng bir to'xtamga kelardi. Sohibqiron o'z tajribalariga tayangan holda podshoh quydagilarga amal qilishi kerak deb hisoblaydi, so'zda qat'iy, ishda sherik bo'lmasligi, har narsadan adolatpesha bo'lishi, adolatli vazir saqlashi, mamlakatda buyruq va farmon berish faqat podshoning ixtiyorida bo'lishi, podshoh hukmi joriy etilishi, podsho erkini

¹ Темур тузуклари. Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси 1991. 64–65 бетлар.

boshqaga berib qo'ymasligi, har kimdan fikr olish, undan kerakli paytda foydalanish, sipoh va raiyatga bog'liq masalalarda boshqalarning so'z va fe'liga qarab amal qilmasligi, podshoh xaybati boshqalarni itoat va tobelikka tortib turishi, hukmni hurmatda tutishi, podshoh har bir ishda o'zi hukm chiqarishi, toki hech kim uning fikriga aralashib o'zgartira olmasligi, majlis ahlidan ogoh va xushyor bo'lishi, qarorning bajarilishida qa'tiylik bo'lishi shartligini ta'kidlaydi.

Amir Temur birinchi navbatda fuqoroning farovonligi, tinchligini yuqori o'ringa qo'yadi. "Temur tuzuklari"da aytilishicha raiyat ahli uchun nazarda tutilgan qonunlar shuni ko'rsatadiki, fuqorolardan nimadir talab qilishdan oldin davlat yetarlicha bo'lgan yaratib berishi kerak. Shundagina biz xalq oldida yuzimiz yorug' va ularning qarshisiga bemalol chiqa olamiz deb ta'kidlaydi Sohibqiron. Bu o'rinda ahamiyatli tomoni shundaki, jamiyat, shaxs va manfaat borasida qonun ustivorlik qiladi, shaxsning jamiyatdagi o'rni har chuqur himoya ostiga olingan edi. Uning davlatida qonun ustivorligiga, hamma masalalarda so'z va ish birligiga erishilganligi tufayli tartib-intizom, osoyishtalik hukm surgan. Misrlik olim Muhammad as- Sayd Jamoliddinning "Uning yomonlik va axloqsizlikni ko'rishga ko'zi yo'q" degan so'zlari biz tilga olayotgan masalani yanada oydinlashtiradi. Amir Temur davlat ichidagi talay olchoq va yomon odamlardan ehtiyot bo'lish haqida ogoh etar ekan, bunday odamlarning asl maqsadlari saltanat qo'rg'oniga rahna solishdir deydi. Mamlakatda har sohada barqarorlikni ta'minlash, xalqni baxt-saodatga musharraf etish, shu bilan birga nafaqat o'z zamonasini, balki kelajakni ham o'ylash, alodlarga o'rnak bo'larli saboqlar qoldirish Sohibqiron uchun birinchi galdagi vazifa hisoblangan. Uning davlatchilik merosi kuchli siyosiy konsepsiyani tashkil etadi. Amir Temuriylar zamonida qisqa vaqt ichida ro'y bergan inqilobiy o'zgarishlarga, temuriylar davri Renessansning yuzaga kelishi albatta, davlatchilik ta'limoti chuqur ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun biz xaqli ravishda milliy davlatchilik tariximizdagi eng zalvorli va kulminiatsion davr Amir Temur va uning vorislari davr deb atay olamiz. Sohibqiron Amir

Temur hech bir davlat va davr uchun eskirmaydigan mukammal davlatchilik ta'limotini yaratdi. Tajribalar asosida kamolga yetgan va pishiq asoslarga tayangan davlat boshqaruvi amalda qat'iy ijrosini topdi va jamiyatda adolat tantanasiga erishdi. Uning davlatchilik ta'limoti asrlar osha davlat boshqaruvida andoza vazifasini o'tadi.

Amir Temur davlatchilik tarixiga alohida e'tibor berilayotganida chuqur ma'no bor. Tarix xalq xotirasi bo'lib, u o'zbek davlatchiliginining boy merosini saqlovchi bebaxo xazinadir. Zero, bizning ajdodlarimizning davlatchilik ta'limotlari boy bo'lib, ulardagi muhim nazariy ma'lumotlarni bugungi demokratik jamiyat qurish tamoyillari bilan uyg'unlashtirish oldimizda ko'ndalang turgan masalalarning yechimini topishda bizga dastur vazifasini o'taydi. Shuningdek yosh avlodni milliy qadryatlatga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni har tomonlama komil inson bo'lib yetishishida tarixiy meros, ayniqsa Amir Temur va temuriylar davridagi siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qadryatlar katta ta'sir kuchiga ega bo'la oladi.

I.2. "Temur tuzuklari"ning o'rganilish tarixi

Hozir kungacha biz va ajdodlarimiz katta yo'lni bosib o'tdik va o'tmoqdamiz. Biz xohlaymiz yo'qmi albatta tariximiz va uzoq o'tmishimizga nazar tashlashga majburmiz. Bunda tarixiy asarlarning o'rnei beyqiyosdir. Bejizga bizning birinchi Prezidentimiz "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan iborani ishlatmagan, buning tagida katta ma'no bor. Kelajagimizning buyukligini belgilashda tariximizning o'rnei kattadir. Tarixni yoritishda me'muar asarlar bizga katta yordam beradi. "Temur tuzuklari" ham shunday asarlar sirasiga kiradi.

Biz bu asarni o'rganish orqali yaqin tariximizga sayohat qilamiz. Asarning davriy chiziqlariga keladigan bo'lsak, 1342-1405-yillar orasida sodir bo'lgan voqealar uning avlodlari tarixini o'z ichiga oladi. Asar juda ko'p nomlar bilan tilga olinadi. Masalan "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning

aytganlari”), “Voqioti Temuriy” (Temurning boshidan kechirganlari”) nomlari bilan atalmish bu asar e’tiborga molikdir.¹ “Temur tuzuklari” podsholarning turish- turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir. Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qismda jahon tarixida mashhur fotih, sarkarda va iste’dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti va ijtimoiy- siyosiy faoliyati, aniqrog’i Movaraunnahrda hokimiyatni qo’lga kiritishi, feodal tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo’shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron hamda Afg’onistonni o’z tasarrufiga kiritishi, Oltin O’rda hukmdori To’xtamishxonni, butun Yevropaga qo’rquv va daxshat slogan turkiya sultoni Yildirim Boyazidga qarshi va nihoyat buyuk jahongirning Ozarbayjon, Guruziya va Hindistonga qilgan qarshi harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qismda esa jahongirning nomidan aytilgan va uning toju taxt vorislariga atalgan o’ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat.

Unda davlatni idora qilishda qismlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo’shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo’shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarining toj-u taxt oldida ko’rsatgan alohida ximatlarni taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi. “tuzuk” yozish odati Amir Temurdan oldin ham bo’lgan. Bu odat aslida xitoylardan va turk-mo’g’ul xonlaridan qolgan. Masalan turk xonlaridan qolgan “Qonunnoma”, Chingizxondan qolgan “Bilik”, Xondamir yozgan “Qonuni Humoyun” shular jumlasidandir. Bunday asarlarda davlatni idora qilish tartib qoidalari, turli mansab egalari vazifalari, xayri sadaqa qilish tartibi, soliq solish va uni to’lash tartibi, harbiy yurishlarni o’tkazish va qo’zg’olonni bostirish qoidalari bayon etilgan. Asarning muallifi ma’lum emas. Butun voqea bir shaxs Amir

¹ “Temur tuzuklari”. T-1991. 5- bet

Temur nomidan hikoya qilinadi. Aslida shundaymi yoki Amir Temur aytib turgan, kotib yozib olganmi, yo bo'lmasa uning aytganlarini kimdir jam qilib kitob tuzganmi, bu haqida qat'iy fikr aytish qiyin. Sharq mamlakatlarida bu mashhur asar chindan ham Amir Temur tomonidan yozilganligi va uning tarjimai holi ekanligi e'tirof qilinadi.

Asarni bugun jahonning ko'pgina mamlakatlarida, masalan, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Finlandiya, Daniya, Eron, Hindiston, Turkiya, Misr, Yaman kutubxonalaridan topish mumkin. O'z-o'zidan ma'lumki, qaysi bir asar qimmatli, amalda zarur bo'lsa, undan ko'proq nusxa ko'chirilgan. "Temur tuzuklari" ham shunday asarlari sirasiga kiradi. U ko'proq podshohlarga kerak bo'lgan. Shuning uchun ham hukmdorlarning ko'pchiligi bu va shunga o'xshash asarlardan nusxa ko'chirtirib, shaxsiy kutubxonalarida asraganlar va ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida ular muhim yo'l-yo'riq sifatida foydalanganlar. Masalan Boburning avlodi Shoh Jahon, Qo'qon Muhammad Alixon va Buxoro amiri Abdulahadxon chapdast kotiblariga buyurib o'zlari uchun asardan nusxa ko'chirtirganlar. Ko'chirganda ham zo'r ma'suliyat va qunt bilan ko'chirganlar. 1637-1638-yillarda Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy degan shaxs Shoh Jahonga "Tuzuki Temuriy"ning forscha tarjimasini taqdim etgan. Podsho tarjima bilan tanishib chiqib, uni qozi kalon va iste'dodli yozuvchi Muhammad Afzal Buxoriy qo'liga tutqazadi.

U Sharafuddin Ali Yazdiyning mashhur "Zafarnoma"¹ asari bilan solishtirib ko'rib kamchiliklari bo'lsa tuzatadi. "Temur tuzuklari"ning shu kungacha yetib kelgan qo'lyozma va toshbosma nusxasalari o'sha Turbatiy tarjimasida yaratilgan. Turbatiyning fikricha asl nusxa Yaman hokimi Ja'farning kutubxonasidan topilgan. Buni mashhur venger olimi Xerman Vanberi ham kuztuvlari asosida tasdiqlagan. Asar XVIII asrdan buyon dunyo olimlarining e'tiborini qozonib keladi. Masalan, asarning matni, tadqiqot va

¹ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмад. Ҳайдарбек Бобобеков. Масъул муҳаррир: Барнобек Эшпўлатов. «Шарк» нашриёт-матбаа бош таҳририяти, Тошкент, 1997/

zarur ilmiy izohlar bilan 1873-yilda Angliyada, 1875 va 1891-yilda Hindistonda, 1868-yili Eronda chop etilgan. Asar jahon tillarining bir nechtasiga: 1887-yilda fransuz, 1830-yilda ingliz, 1845-yil urdu, 1894-1934-yillarda rus tiliga va eski o'zbek tillariga tarjima qilingan. Asarning toshbosma nusxalari 1868-yil Tehronda va 1890-yil Toshkentda tarjima qilingan. Asarning forsha tarjimasi 1873-yilda ingliz mayori va professori Uayt tomonidan Oksforda chop etilgan. Uaytga bu asarni Hindistonda yashagan ingliz zobiti mayor Devi 1799-yilda olib kelib beradi. "Temur tuzuklari"ning inglizcha tarjimasini mayor Devining o'zi qilib chiqadi va asarga bir qancha izohlar berdi. Aynan shu nashr dunyo mamlakatlarining keng tarqalgan va "Tuzuki Temur" yoki "Tuzukoti Temur" nomi bilan shuhrat topgan. Shuningdek hech o'zgarishsiz Kalkutta va Bombay shaharlarida, 1963-yilda Eronda chop etilga. Asarning fransuzcha tarjimasi sharqshunos L Lyangle tomonidan fransuz tiliga tarjima qilib nashr ettiradi.¹

1892-yil L Lyanglening fransuzcha nashridan N. P Ostroumov rahbarligida Toshkent gimnaziyasining bir guruh talabalari asarni rus tiliga tarjima qiladilar. 1968 va 1992-yillarda I M Mo'minov² yozgan qisqa so'z boshi bilan N. P Ostroumov nashri chop etildi. "Temur tuzuklari"ning Devi va Uayt nashri asosida chiqarilgan toshbosma va keyingi nashrlardan biri asosida Alixonto'ra Sog'uniy 1967-yil Toshkentda "Tuzuki Temuriy"ni o'zbek tiliga tarjima qilgan va "Guliston" jurnalida tarjimaning faqat 30 foizini e'lon qilgan. Asar to'liq chop etilmaganligining sababi va 1989-yilda o'zbek tiliga qilingan yana bir tarjima xususida akademik Bo'riboy Ahmedov quydagicha fikr bildirgan: "O'sha vaqtda jamiyatimizdagi mavjud ahvol, aniqrog'i rasmiy hokimiyat ma'murlarining o'tmish tariximizni o'rganishga bo'lgan yomon munosabati natijasida Alixonto'ra Sog'uniy tarjimasi to'la tarzda bosib chiqmadi". Yana shuni qayd etmoq lozimki, tarjimaning bosilgan qismi kamchiliklardan xoli emas edi. Unda masalan, ayrim jumlalarining tashlab ketilgani aniqlangan, asl

¹ Qo'ldosh Ergashev. Hojakbar Hamidov. "O'zbekiston tarixi" T-2015. 226-bet.

² Муминов Иброҳим. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т., "Фан". 1968 й. 51-бет

matndan chetga chiqish hollari mavjud, kishi nomlari, jo'grofiy atamalarda va istilolarda chalkashliklar bor edi.

Muhim tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, joy nomlari va etnik nomlar, turli atamalar va ularning sharhlari erkin talqin etilgan. 1989-yilda Alixonto'raning o'sha nashrini "Tuzuki Temur"ning Bombeyda chop etilgan forsha matnga solishtirgan holda o'zbek tiliga yana bir tarjima amalga oshirildi. Uni o'zbek sharqshunosi Habibula Karamatov hozirlab, oldin "Sharq yulduzi" jurnalining 8-sonida, so'ngra alohida kitob holida 1991-yil G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida nashr ettirdi. Mazkur nashrni tayyorlashda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute qo'lyozmalar fonida saqlanayotgan Kalkutta, Tehron, Bombey nashrlari A Sog'unij tarjimasi bilan solishtirilgan. Tarjima matni forsiy asliyatdan ancha farqlangani bois Bombey nashri asosida o'zbek tiliga o'girilgan va og'ir qatag'on davrida o'zbek xalqiga Amir Temur to'g'risidagi haqiqatni yetkazishga intilgan Alixonto'ra Sog'unij nomlari birinchi o'ringa qo'yilgan.

Asarning "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgan tarjimasi asosida 1991-yil Boku va Olmaotada ham "Temur Tuzuklari"ning qozoq va ozarbayjon tillaridagi tarjima kitoblari nashr etildi. 1996-yil asarning yangi tarjimasi qayta o'zbek tilida chop etildi. 1999-yil sharqshunos Hamidulla Karomatov asarni Bombey nashri asosida birinchi marta bevosita for tilidan rus tiliga tarjima qildi. Asarning yana 1855-yil Dehlida Subhon Baxshi va 1908-yilda Bombeyda Muhammad Fazl ul-Haq taraflaridan amalga oshirilgan urducha tarjimalari ham mavjud. "Tuzuki Temuriy" sifatida tanilgan aynan Devi va Uayt nashri dunyoning turli burchaklarida qayta-qayta nashr etilgan va ilmiy doirada ishonchga kirgani bois jahonnning ko'plab tillariga tarjima qilingan. "Malfuzoti Temuriy", "Voqeoti Temuriy" nomlari bilan tanilgan va ko'pincha adashib "Tuzuki Temuriy"ga nisbat beriladigan asar nusxasining yuzaga kelishi to'g'risida arab olimi Mazhar Shihob "Temur" nomli kitobida "Tuzuki Temur"ning yuqorida eslatilgan ingliz va fransuz tilidagi nashrlarning so'z boshlarini o'rganish asosida shunday yozgan: "Va nihoyat Amir Temur

malfuzotlarining Abu Tolib al-Husayniy tomonidan qilingan ushbu tarjimasidan Hindistonda Shoh Jahon ko'rsatmasiga binoan, Muhammad Afzal Buxoriy tomonidan tayyorlangan ikki nusxa tarjimasi topulginga qadar bu hol davom etdi".

Bir nusxasini Hindistonda xizmatda bo'lgan Devi mo'g'ul- musulmon sultonlari nabiralarining biridan olishga muvaffaq bo'ladi. Shu boisdan bu nusxa Sultoniyy nusxa deb nomi ataladi. Malfuzotning ikkinchi nusxasi ham Dehlidan topilib, uni ham ingliz generallaridan biri Britaniyaga olib keladi. Ikki nusxaning qimmatli tomoni shunda ediki, unda Sohirqiron hayoti oxirigi yilligacha hikoya qilingan edi. Mutarjimning yozishicha, Muhammad Afzal Buxoriyning tarjimasi 1670-yilda amalga oshirilgan. U bu tarjimani boyitishda Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida unumli foydalangan. Tarjimaning nusxalari bir qancha davlatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda. XIX arsda O'rta Osiyoda "Temur tuzuklari"ning forsiydan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan uchta tarjimasi paydo bo'ldi. Sharqshunos Stori katalogida keltirilgan ma'lumotlatga ko'ra, ulardan birini 1836-yilda Qo'qon xoni Muhammad Alixonning buyrug'iga binoan, Xo'jand qozisi Nabijon Mahmud Xotif amalga oshirgan. Tarjima fors tilidagi nusxadan qilingan va Amir Temurning 39 yoshgacha voqealari keltirilgan. Hozir bu qo'lyozma Sank-Peterburgdagi Sharqshunoslik insitutida saqlanadi. Ikkinchi nusxasi esa Xivada Muhammad Yusuf ar-Rojiiy tomonidan 1856-1857-yillarda "Tuzuki Temuriy" nomi bilan tarjima qilingan. Uchinchisi esa pahlovon Niyoz Devon tomonidan "Qissai Temur" va "Malfuzot" nomlari bilan tarjima qilingan. Har ikkala tarjima ham Sank-Peterburgdagi M.Ye. Saltikov Shcherdin nomidagi Rossiya davlat kuyubxonasida saqlanmoqda.

Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida o'zining siyosiy-iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, Turkistonni o'z ta'sir doirasiga olgan, o'lkada mustamlakachilik rejimini o'rnatgan mustamlakachi ma'murlar Turkistonning boy ma'naviy-huquqiy merosiga duch keldilar va bu merosni o'zida aks ettirgan ba'zi asarlar, jumladan, «Temur tuzuklari» o'sha davridayoq rus tiliga tarjima etildi va

ilmiy jamoatchilikka tanishtirildi. Nabijon Maxmudovning ko'plab xatolari bore ski o'zbek tilidagi tarjimasi asosida rus sharqshunosi N P Ostroumov Turkiston general-gubernatori, baron A B Vrevskiy yordamida "Malfuzot"ning turkiy matnini 1891-yil Toshkentda nashr etdi. N P Ostroumov nashri asosida "Malfuzot" rus sharqshunosi Nil Likoshin tarafidan 1894-yil Toshkentda rus tiliga tarjima qilindi. 1934-yil Moskvada rus olimi V A Panov tomonidan Ostroumovning mazkur nashri asosida "Malfuzot"ning yangi tarjimasi nashr etildi. 1992-yil Toshkentda taniqli sharqshunos Ashraf Ahmedov Ostroumov nashriga tayangan holda Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sining tanqidiy matnidan foydalanib, "Malfuzot"ning o'zbekilidagi zamonaviylashtirilgan erkin tarjimasini amalga oshirdi.

O'sha davrdagi rus olimlaridan biri D.I.Logofet «Tuzuklar»ni o'rganib va unga yuksak baho berib: «Turkistonda huquqiy davlat va Konstitutsion Kodeks Yevropadan 500-400 yillar oldin vujudga kelgan», degan fikrni ilgari suradi. Ba'zi rus olimlari esa «Temur tuzuklari»ga past nazar bilan qarab, uning muallifi Amir Temur ekanligiga, hatto, shubha bildirganlar. Ana shulardan birinchisi – taniqli sharqshunos olim V.V.Bartold o'zining 1918 yilda nashr ettirgan dastlab «Ulug'bek va uning davri» asarida shuningdek, keyinchalik 1928 yilda chop etilgan «Mir Alisher va siyosiy hayot» nomli maqolasida ushbu fikrni olg'a surib va rivojlantirib, «Temur tuzuklari» XVII asrda Hindistonda bitilgan asar degan fikrni ilgari suradi. V.V. Bartoldning ushbu fikrlari o'sha davrdagi hukmron siyosatga hamohang aytilganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bunday yondashishlar asosida turkiy xalqlarning qadimiy davlatchilikka ega bo'lganligi, uning o'ziga xos huquqiy manbalari hamda ularni yaratish an'analari mavjud bo'lganligini kamsitib ko'rsatish niyatlari yotadi. Bunday fikrlar davlat va huquq tarixi bilan shug'ullanuvchi rus va sobiq sovet olimlari o'rtasida ham o'z samarasini bergan. Sobiq sovetlar davlati va huquqi tarixining birinchi darslik kitobini yozgan S.V.Yushkov «Temur tuzuklari»dek huquq manbaini ko'rmaslikka olib, O'rta Osiyo xalqlarining huquqiy manbalari faqat «Qur'on va unga berilgan sharhlar hamda «Hidoya» dangina iborat», degan xato fikrning shakllanishga olib keldi.

Ushbu fikr tarixiy-huquqiy fanlarda 90-yillargacha hukmron bo‘lib qoldi. «Pravda Vostoka» gazetasining xabar berishicha, 1930 yillarda «Temur tuzuklari»ni o‘rganish va uning barcha tahrirlarini to‘plash maqsadida, huquqshunoslardan iborat maxsus guruh ham tuzilgan.

«O‘zbekiston huquqi va sovet qurilishi ilmiy tadqiqot instituti qoshida tashkil qilingan bu guruh Tuzuklarning o‘zbekcha va ruscha tarjimalarini topib to‘plagan», deb xabar beradi gazeta, agar bu haqiqatan shunday bo‘lsa, biror joyda, ya’ni institut kutubxonasi yoki arxivlarda turgandir. Ular eng avvalo, rus tilida tegishli sharhlar bilan to‘la tarjimasini bosib chiqarish rejalashtirilgan. Buxoro, Samarqand va Shahrisabz kabi shaharlar arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarni o‘rganish uchun ilmiy xodimlar yuborilgan. O‘sha vaqtda Butunittifoq fanlar akademiyasining «Sovet qurilishi va huquqi» institutining direktori bo‘lib ishlab turgan prof. Pashukanisning shaxsan o‘zi bu ishga rahbarlik qilgan. “Temur tuzuklari” va Amir Temurdan meros bo‘lib qolgan ilmiy meros juda katta ahamiyatga edi. Shu sababdan butun dunyo olimlari, sharqshunoslari, manbashunoslar, shoir va yozuvchilarning qiziqishlari havas qilarli darajadadir. Asar haqida ular quydagi fikr-mulohazalarini keltirishgan.

SHaraffuddin Ali Yazdiyning quyidagi fikrlari asos bo‘la oladi: “shu tartibda ul hazrat hayotining ulug‘ voqealari va kechinmalarini o‘z ichiga olgan turkiy manzuma va forsiy asar, alohida nazm va nasr tarzida tuzulgan edi”, – deb guvohlik berishi, shuningdek, yaqinda to‘la holda nashr etilgan “Qissai Temur”da «amr etdimki, ul maktub suratini voqealarim daftarida sabt etgaylar», – deb Temurning o‘z qo‘li bilan yozilgan so‘zlarning manbada uchrashi “Tuzuklar” XVII asrda Hindistonda tuzilgan kompilyativ asar deb ta’kidlovchilarga javob bo‘la oladi. Ushbu asar yozilayotganda, – deyiladi I.Mo‘minovning risolasida, – “Uning boblarini Temur necha martalab o‘qib chiqqan, ba’zi joylarini tuzatgan, tahrir etgan, qo‘shimcha dalillar zarur bo‘lib qolganda, o‘sha voqea sodir bo‘lgan joylarga odam yuborib, aniqlashtirgan, voqealarning doimo to‘g‘ri, tarixiy haqiqatga mos ravishda yoritilishini talab qilgan”

Agar, – deb yozadi turkiyshunos olim R.Raxmonaliyev, – imperiyaning tuzishda

yuridik asos hisoblangan, mashhurlikda Napoleon kodeksiga teng bo'lgan, «Tuzuklarni», shuningdek, uning armiyasi uchun juda muhim bo'lgan Yaso qonunlarining ahamiyatini unutib tursak, dastlab kamgina vositalarga ega bo'lgani holda, juda qisqa muddat ichida qanday qilib juda ko'p podsholiklarni zabt etib taniqli va qudratli monarxlarni taxtdan ag'darganligini tasavvur qilish juda murakkabdir. Ko'rib turibmizki, taniqli tadqiqotchi, shu o'rinda tuzuklarning ahamiyatini XIX asr boshlarida Fransiyada qabul qilingan Napoleon Bonapartning kodekslariga tenglashtirmoqda. Yevropa olimlari ham bu asarni o'rganib chiqishganda shunday xulosaga kelishadi. “Temur tuzuklari” ahamiyatga molik asar bo'lganligida hozirgi kunda ham dunyoning turli burchaklarida o'rganilmoqda. «Tuzuklar»ni ilmiy adabiyotlarda, turli soha olimlari, unga turli qirralari bo'yicha yondashib, turlicha baholaydilar: Masalan akademik M.Xayrullayev shunday ta'kidlaydi. “davlat siyosati aspektlarini amalga oshirish dasturi”. Temur saltanatining butun qonun-qoidalarini o'zida mujassallashtirgan o'ziga xos Kodeks, Konstitutsiya (SH.Muhammadiyev). Amir Temur davrining muhim hujjati, qimmatli manba (K.Saidova). Mustaqillik falsafasini o'zida mujassamlashtirgan asar (S.Abduvohidov, N.Abduvohidov) Tuzuklar “Amir Temur davrida davlatni idora etishda qo'lanilgan ma'muriy va harbiy qonun-qoidalar va tartibotlar majmuasi” – deb baholaydi arab tadqiqotchisi Mazhar SHihob. Davlat yuritishning mashhur qonun-qoidalari majmuasi (prof. N.G'oyibov), Amir Temurning siyosiy vasiyatlari deb, o'z fikrlarini bildiradilar. Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, biz g'urur bilan tilga oloadigan bu asar barcha soha vakillari uchun dasturul amal bo'la oladi desak adashmagan bo'lamiz.

Amir Temur faoliyatiga, shaxsiga salbiy baho berish Rossiyada chop qilingan adabiyotlarda hukm surdi. Aynan xuddi shunday yondashish rus tarixchisi T.N.Granovskiy (1813-1855) tomonidan ham yuz berdi. U o'zining 1852 yilda MDU talabalari uchun o'qigan “Temur” degan ma'ruzasida, rus tarixchilaridan birinchi bo'lib, Amir Temurning faoliyatiga uni yaxshi o'rganmasdan salbiy baho berdi. U yoshligida mayda talonchilik, yo'lto'sarlik bilan shug'ullangan degan

fikrni ilgari surdi. Afsuski, bu noto‘g‘ri ma’lumot qariyb 150 yil davomida rus tarixchilari asarlari sahifalaridan tushgan emas. Akademik V.V.Bartolddek¹ olimning ham Temur faoliyatiga baho berishda, xolisonalikni yuqotganligida yuqoridagi fikrlarning ta’siri bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Rus tadqiqotchilarining ba’zilari o‘z davlatining siyosatidan kelib chiqqan holda, ilmiy xolisonalikdan uzoq bo‘lgan muhit ta’siriga tushib qolgan. Natijada Temur shaxsi ham, uning «Tuzuklar» ining ahamiyati ham buzib talqin etilgan.

Bartoldning shogirdi mashhur turkolog olim S.G.Klyashtorniy shunday yozadi – Shu narsa yaqqol ko‘zga O‘rta Osiyo, ayniqsa, turkiy tilli xalqlarning tarixini o‘rganish hamda ularning o‘tmishiga oid eng asosiy savollarga javob berish, milliy va madaniy qurilishning eng zaruriy, asos qismini tashkil qiladi. Bu boradagi har qanday sustkashlik soxtalashtirilgan tarix yordamida milliy va diniy toqatsizlikni, ro‘y berayotgan jarayonlarni, qabul qila olmaslikni, milliy his-tuyg‘ularni Turkistondagi sovet hokimiyatiga qarshi kurashda o‘tkir qurol qilib foydalanishga harakat qilayotgan milliy reaksiyaga yon berishni anglatar edi. SHuning uchun ham mashhur olim Temurning shaxsi va faoliyatini yoritishda haqqoniylikdan uzoqlashgan bo‘lsa ajab emas. Amir Temur shaxsiga va uning faoliyatiga bunday munosabat, albatta, hamma rus yoki sobiq sho‘rolar tarixchilarining qarashlariga xos emas. “Temurday buyuk shoh va inson xotirasiga munosabatni ko‘rib achinib ketasan, – deb yozgan edi O‘rta Osiyoni tadqiq etgan olimlardan D.N.Logofet – axir u o‘zining xalqini taraqqiyotning yuqori bosqichiga olib chiqqan, o‘z davrining o‘ta madaniyatli vakili edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashagan ma’rifatparvar olim Ahmad Donish Amir Temur shaxsi va faoliyatiga hamda uning «Tuzuklar»iga yuksak baho bergan edi. Jahon tarixida har ming yillik yoki yuz yilliklarda birin-ketin uni yangilovchilar dunyoga kelib turadilar, xuddi shuningdek, bir eraning tamom bo‘lishi, boshqasining boshlanishidir. Qachonki, jahon yilnomalari ming yillik va yuz yilliklarga to‘g‘ri kelar ekan, musulmonlar orasida, albatta, Yupiter, Merkuriy

¹ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана/ Соч. – М., 1963. Т. II (1). – С. 109-166.

va Zuhro yulduzlarining xislatlarini oʻzida mujassamlashtirgan, din va iymonni yangilovchi insonlar va ana shunday xislatlarni oʻzida gavdalantirgan davlat boshliqlari hamda ularga yordam beruvchi kishilar dunyoga keladi.

Agar chuqurroq nazar tashlasak, har bir kasb-hunarda, sanʼatda shunday yangilovchilarni koʻrasan, odatda esa kishilar bularga eʼtibor qilmaydilar. Biz uchun barcha ming yillik va yuz yilliklarning yangilovchilarini aniqlash muhim emas. Kim buni xohlasa, «Tuzuki Temuriy»dan aniqlashi mumkin, – deb yozadi. Fakt tariqasida shuni keltirish mumkinki, Amir Temur Koʻragoniy oʻzi hijriy yil hisobi boʻyicha sakkizinchi yuz yillikning yangilovchisi boʻlib keldi. Undan keyin ham har bir musulmon davlatida yangilovchilar vujudga kelib turganlar: taxminan toʻqqizinchi yuz yillikda Hirotda Sulton Husayn Boyqaro (1469-1506); ikkinchi ming yillikning boshlarida Buxoroda Abdullaxon II (1557-1598), oʻn birinchi yuz yillikda Sayid Subxonqulixon (1680-1702), oʻn ikkinchi yuz yillikda esa Amiri Maʼsum – amir SHohmurod (1785-1800) yangilovchilar sifatida tarix sahnasiga chiqdilar. Koʻrinib turibdiki, ilgʻor fikrli olimlar, hatto Amir Temurga “davlat va dinni yangilovchisi” deb baho berganlar.

Temurbek davlatdagi sud va qonunchilik masalalarini oʻrganishda tuzuklar va sayyohlarning esdaliklari va tarixiy asarlar manba boʻlib xizmat qiladi. Tuzuklarga qarab fikr qilsak, Temurbek davlat ishlarini boshqarishda qonun va qoidalarga qattiq rioya qilganligini koʻramiz. Tuzuklarning bir necha joyida ayniqsa, uning ikkinchi maqolasida, bu haqida juda taʼkidlangan. Jumladan, tuzuklarga koʻra moliya vazirlari oʻzlarining qoʻl ostidagi mol mulkidan, boylikdan davlatning moliya ishlariga xiyonat qilib, oʻzlashtirib olgan boʻlsalar va agarda ularga maoshga teng boʻlsa, oladigan maoshidan ushlab qolingan, uch barobar ortiq boʻlsa vazirning mol-mulki musodara qilingan. Bunday misollar tuzuklarda juda koʻplab uchramiz, bundan koʻrnadiki Amir Temur davlatning ichki va tashqi mexanizimi juda murakkab tuzilgan. Shu sababdan ham biz “Temur tuzuklari”ni oʻrganimiz asosiy masalalardan biridir.

1969-yilda YUNESKOning Samarqandda Temur va temuriylar davrida

Markaziy Osiyoning san'ati va madaniyatini o'rganish bo'yicha Xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi munosabati bilan bu tarixiy manbaga e'tibor yanada kuchaydi. Ayniqsa akademik bu borada katta jonbozlik ko'rsatdi. Bu yuqorida bildirilgan fikrlarda ham o'z tasdig'ini topadi. Shundan keyin respublikamizning tarixchi-huquqshunos olimlari O I Eshonov, X S Samatova, va Sh Z O'razaliyevlar tomonidan yozilgan ko'pgina ilmiy asarlarida unumli foydalandilar. Jamiyat o'zining zaruriy qonuniyatlariga egadir. O'sha zaruriy qonuniyatlar tarkib topmast ekan, jamiyatda turli tengsizliklar kelib chiqishi, hammda bu bilan davlatning rivoj topishiga putur yetishi muqarardir. Bizning buyuk bobomiz Amir Temur o'z davrida eng yetuk qonunlar to'plamini yarata oldi. O'tmish va kelajak bundan har qancha o'rnak olsa arziydi.

III. BOB AMIR TEMURNING TUZUKLARI MAMLAKATIMIZDA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA

III.1. “Temur tuzuklari” – milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi

Tarix shuni ko'rsatadiki, har bir millat, har bir shaxs, birinchi navbatda o'z milliy g'ururiga ega bo'lishi, o'zligini anglashi lozim. Shaxs, millat avvalambor, o'zini hurmat qilgandagina boshqa shaxs, millatlarni hurmat qiladi. O'zligini yo'qotganlar baribir kuchli, qudratli bo'la olmaydi. Aksincha, o'zligini anglagan, o'z ajdodlari tarixini, qadriyati, urf-odatlarini, an'analarini e'zozlagan millatning kelajagi buyuk bo'ladi. Haqqoniy va xolis o'rganilgan tarix insonga kuch bag'ishlaydi, irodasini mustahkamlaydi.

O'zbekiston mustaqilligi boy va qadimiy tariximizni haqqoniy va xolisona qayta tiklash imkonini beradi. Biz nafaqat Amir Temur va Temuriylar davri tarixini, balki butun tariximizni qayta tiklaylik. Sohibqiron Amir Temur nomi oqlanib, poklanib, istiqlolimizning faxri, g'ururi sifatida qabul qilindi.²⁹

Prezidentimizning: "... davlatchiligimiz asoslarini yaratib ketgan Temur bobomiz g'ayrat – shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi, yurtparvarligi bilan bizga hamisha ibrat namunasi bo'lib qolg'usidir. Biz u zoti oliydan hamisha ruhiy madad olamiz", deb g'urur bilan aytgan so'zlari ham buyuk sohibqironning xalqimiz, Vatanimiz oldidagi xizmatlari qanchalik buyuk ekanini ko'rsatadi. Darhaqiqat, Amir Temur davriga oid yozma manbalar ichida "Temur tuzuklari" biz uchun alohida o'rin tutadi.

"Temur tuzuklari"ning o'rganilishi O'zbekistonda 1969-yili YUNESKO tomonidan Samarqandda Temur va Temuriylar davridagi Markaziy Osiyo san'ati va madaniyatini o'rganish bo'yicha xalqaro konferensiyasining o'tkazilishi

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг "Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир" риволасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Т., Ўқитувчи, 2012, 15-бет.

munosabati bilan “Temur tuzuklari”ning 1967-yili Alixon To’ra Sog’uniy (1885-1976-yillar) tomonidan hozirgi o’zbek tiliga o’girilib “Guliston” jurnalida chop etilgan edi.³⁰ akademik I.M.Mo’minov tashabbusi va so’z boshisi bilan N.Ostroumov tomonidan rus tiliga qilingan “Temur tuzuklari” tarjimasining foto nusxasi matni chop etilgan.³¹

1980-1990 yillarda asarni fors tilidan A.Sug’uniy, H.Karamatov tarjimasi nashr qilingan.

Ilmiy jamoatchilikka “Tuzuki Temuriy” (“Temur tuzuklari”), “Malfuzoti Temuriy” (“Temurning aytganlari”), “Voqyeoti Temuriy”, (“Temur haqida xotiralar”) kabi nomlar bilan tanilgan, dastlabki turkiyda yozilgan ushbu asarning forsha tarjimadan bizgacha yetib kelgan qo’lyozmalari XVII asrga, ya’ni Boburiy hukmdorlaridan Shoh Jahon davriga (1628-1657) oid bo’lsa-da, uning asli XIV asrning oxiri – XV asrlarda yaratilgan degan xulosa mavjud. Asarning turkiydagi asl nusxasi topilmagani bois, uning yaratilgan davri xususida B.Ahmedov, D.Yusupova, U.Uvatov, H.Karamatov, H.Bobobekov, O.Bo’riyev turli mulohazalarni bildirganlar.

1991-yilda asarning tuzatishlar kiritilgan, to’ldirilgan tarjimasi H.Karamatov tomonidan amalga oshirilib, B.Ahmedovning kirish so’zi va ilmiy izohlari bilan chop etildi. “Temur tuzuklari”ning 1991-yilgi nashri asosida 1996-yili qayta bosildi va asarning uch tildagi (o’zbek, ingliz, fransuz) nashri ham chiqdi.³²

Amir Temur – jahon tarixida o’chmas iz qoldirgan ulug’ sarkarda, davlat arbobi, ilm va ma’rifat homiysi. Ko’p tarixiy dalillar shundak guvohlik beradiki, Amir Temur ma’rifatli oilada dunyoga kelib, bolaligidan boshlab yaxshi tarbiya ko’rgan. U tirishqoq, o’tkir zehnli, e’tiqodi mustahkam, mehnatdan qochmaydigan bo’lib o’sgan. Bo’lg’usi sarkarda hayot sirlarini barvaqt anglagan, voqealarni chuqur tahlil qila bilgan va tegishli xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo’lgan.

³⁰ Темур тузуклари. Алихонтўра Соғуний таржимаси. //Гулистон. 1967.

³¹ Уложение Темура. Т., Фан, 1968.

³² Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Т., 2008, 371-бет.

Sohibqironning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu-fan, san'at va me'morchilikka oid qarashlari, hayotning ma'no-mazmuni, insonni ulug'laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, din-u diyonat va adolatni joyiga qo'yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko'zlab, el manfaatini o'ylab ish tutish bilan bog'liq ibratli fazilatlarini alohida ta'kidlamoq kerak. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo'lgan "Temur tuzuklari" asarida har tomonlama aniq, ishonarli va ta'sirchan yoritilgan.

Amir Temur chindan ham xalq orasidan chiqqan va uning qudratiga suyanib ish olib boradigan rahbar bo'lgani uchun "raiyyat" deb ataladigan oddiy fuqarolarning ahvolini yozshilashga birinchi navbatda e'tibor beradi. "Temur tuzuklari"da bu haqida shunday deyiladi:

"Raiyyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim... Ularning mijozlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan odamlarni ularga hokim qilib qo'ydim. Har bir diyor aholisining ahvolini, sipoh-u raiyyat kayfiyatini, turish-turmishini, qilish-qilmishlarini, bular o'rtasida o'zaro munosabatlarni xatga bitib, menga bildirib turishlari uchun diyonatli, to'g'ri yozuvchi kishilarni belgiladim".³³

Amir Temur davlatida yetti nafar vazir ish olib borgan. Islom qozisi shariatga oid ishlarni ko'rib chiqqan. Dunyoviy ishlarni ajrim qiladigan qozixona alohida bo'lib, podshoh rahbarligida mustaqil ish olib borgan. Bulardan tashqari, devonxonada arzbegi deb ataladigan nufuzli amaldor ham faoliyat yuritib, raiyyat va sipoh arz-dod qilib podshoh dargohiga kelsa, ularning arzini eshitib, Amir Temurga ma'lum qilib turgan.

Yana buyurdimki, - deyiladi "Temur tuzuklari"da, - amirlar, mingboshilar raiyyatdan moli jihot (ya'ni ekin xosilidan olinadigan davlat ulushi – uchdan bir yoki beshdan bir qism bo'ladi) yig'ganlarida xirojdan ortiqcha suvoriy, qo'nalg'a va shilon talab qilmasinlar".³⁴

³³ Temur tuzuklari. T., Ўзбекистон, 2013, 77-бет.

³⁴ Temur tuzuklari. 2005, 86-бет.

Yuqorida aytib o'tilgan soliqlar chingiziylar davrida ot mingan amaldor kelsa, unga sovg'a berish, elchilar, choparlar kelsa, ularni xalq hisobiga mehmon qilish kabi odatlarni ba'zi amaldorlar Turonda mustaqillik davrida ham qo'ymas edilar. Shuning uchun Sohibqiron mo'g'ullardan qolgan bu sarqit urf-odatlardan qutilish haqida o'z amaldorlariga qayta-qayta buyruq berar, bajarmaganlarni jazoga tortardi.³⁵ ayniqsa, raiyatni haqorat qiladigan, kaltaklaydigan amaldorlarga Amir Temur ayovsiz jazo berardi. "Xirojni raiyatdan kaltaklash, savalash yo'li bilan emas, balki tushuntirish, ogohlantirish yo'li bilan undirsinlar. Qaysi hokimning so'zi va hukmining ta'siri kaltaklash ta'siridan kamroq ekan, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdir" deyiladi "Temur tuzuklari"da.

Qarang, bugungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan bu dono so'zlar Sohibqironning faqat so'zda emas, amalda adolat uchun tinmay ko'rash olib borganini, xalqni zolim amaldorlardan astoydil himoya qilganini ko'rsatadi.

"Tuzuklar" deb turkiy so'z bilan atalgan qonun – qoidalar Amir Temur tuzgan xalqparvar davlatning ming yillik tariximizda misli ko'rilmagan yangi tipdagi adolatparvar davlat bo'lganidan dalolat beradi.

"Temur tuzuklari"ni tan olmasdan va chuqur idrok etmasdan turib, Amir Temurning hayoti va faoliyatiga haqqoniy baho berish mumkin emas. Uning sarkardalik dahosi xalq ozodlik harakatiga yetakchilik qilib, vatanini musamlakachi chingiziylardan xalos qilish davrida kamol topgani "Temur tuzuklari"da ajoyib donolik va rostgo'ylik bilan ochib berilgan. Shu o'rinda Prezidentimizning: "...Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan "Tuzuklar"ni o'qisam, huddiki o'zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman" degan teran fikrlarini aytib o'tish joiz.

Xulosa qilib aytganda donishmand bobokalonimizning tarixiy o'gitlari O'zbekiston istiqloli davrida xalqimiz va rahbariyatimiz tomonidan izchil amalga oshirilayotgan bizning har birimiz nafaqat guvohimiz, balki bu ulug' va ulkan ishlarga zarracha bo'lsa ham hissa qo'shish istagida mehnat qilmoqdamiz.

³⁵ П.Қодиров. Амир Темур сиймоси. Т., Ўзбекистон, 2007, 111-бет.

III.2.«Temur tuzuklari» - adolatli hamda kuchli davlat barpo etishdagi muhim qonun-qoidalar sifatida

Amir Temur va Temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar anchagina bo'lib, ular orasida «Temur tuzuklari» buyuk jahongir hayotiga va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar ichida shubhasiz alohida ahamiyat kasb etadi. «Temur tuzuklari» jahonning mashhur kutubxonalaridan joy olgan qimmatli asardir.

«Temur tuzuklari» ikki qism, 56 ta banddan iborat tarixiy va huquqiy asar bo'lib, unda sohibqironning davlat tuzilish va mamlakatlarni boshqarish xususidagi nuqtai-nazari bayon qilinadi. Bu asardan ko'plab sharq hukmdorlari o'zlarining faoliyatlari davomida foydalanganlar va unga Yuqori baho berganlar. Jumladan, Shoh Jahon (1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1821-1842), Buxoro amiri Abdullahadxon (1885-1910) «Tuzukot» dan parchalar ko'chirtirib, ulardan o'z faoliyatlarida foydalanganlar.

« Temur tuzuklar»ning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342-1405-yil 18 fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va mamlakatlarni, masalan Eron va Afg'onistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon ustidan g'alaba qilishi, nihoyat buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qismi Sohibqironning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-u nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalarining burchi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar xususida gap boradi.

Amir Temur o'z oldiga ulug' davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni

zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, Mo'g'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, xo'jalikni oyoqqa turg'izish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir me'yorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, islom diniga rivojlantirish, ilm-fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko'lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo'ygan edi. Uning bunday sa'yi-harakatlari katta kuch-g'ayrat, mablag', bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi. Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo'lib, u o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyangan.

Amir Temur shaxsini idrok etish - tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash - o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temuni ulug'lash - tarixqa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Ma'naviy ildizlarimizdan biri bu Temur ma'naviyatidir. Bu qudratli manba insoniyat tarixida tengi yo'q markazlashgan davlatchilikka, qonunchilikka asos solish bilan yer yuzining deyarli hamma mamlakatlarida o'rganilib, hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz faqat hozirgi kunga kelgandagina bu ma'naviyatni naqadar zarur ekanligini va buyuk kelajak sari qadam tashlayotgan xalqimiz uchun nihoyatda qadrli ekanligini anglamoqdamiz.

Amir Temur insonni qadrlay oladigan va uni farqlay oladigan ulkan arbob edi. Musulmonchilikda, «eng yaxshi kishining ikki qo'li ham to'g'ri bo'ladi, u bir qo'li bilangina emas, ikki qo'li bilan ham yaxshilik qiladi», degan hikmatli ibora bor. Amir Temur do'stiga ham, dushmaniga ham ana shunday ikki qo'li bilan yaxshilik qildi. Qolganlarni ham shunga undadi. «Tuzukot» da ham, tarixiy asarlarning mualliflari ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy asalarida ham, Rui Gonsales de Klavixo kundaligida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Temur o'z faoliyati davomida Olloh buyurgan oliy insoniy fazilatlarga astoydil amal qildi. Temur o'z farzandlariga qilgan vasiyatda shunday deydi: «...

Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni zanginlar (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va yillik (yaxshilik) qilmoq dasturingiz va rahbaringiz bo'lsin». Adolatni shunchalik qadrlagan hukmdor albatta xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lishi tabiiy hol edi.

Temurning «Kuch-adolatda» degan so'zi haqiqatda shiorga aylanib, hamma davrlar uchun jaranglab turuvchi ibora tusini olganligini shohidi bo'lishimiz mumkin. Temur xalqning shikoyatlari va arzlarini o'rganuvchi maxsus arzbegi lavozimini joriy qilgan. Arzbegi shikoyat, arizalarni ko'rib chiqar, ularda kimlar aybdorligini aniqlar va bu xususda kengashga xabar qilar edi. Aybdorlar kim bo'lishidan qat'i nazar qattiq jazolangan. Soliqlar, moliyaviy masalalarda qat'iy tartib-qoida o'rnatilgan. Rus sharqshunosi D.N. Logofet bu xususda shunday deb yozadi: «... biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad solig'i degan narsa uning (Temurning) hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi».

Temur ma'naviyati ulkan manba va tuganmas bir buloqdir. Hozirgi mustaqillikka erishgan davrimizda, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda, milliy mafkura g'oyalarini fuqarolarimiz ongiga singdirishda bu manbaning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham Prezidentimizning Amir Temur tavalludining 660 yillik tantanalari va keyingi vaqtdagi qator chiqishlarida bu manbaning ahamiyati takror va takror qayd etilmoqda. Temur ma'naviyatining bizga o'rgatuvchi, saboq bo'lguvchi joylari juda ko'pdir. Zero, bu ma'naviyat-bobokalonlarimizning bebaho ma'naviy boyligining bir bo'lagi bo'lib, yurtimiz ravnaqi va porloq kelajagi uchun hamisha xizmat qilajakdir.

Hurmatli birinchi yurtboshimiz Islom Karimov. Amir Temur davri ma'naviyati, sohibqiron shaxsiyati va u qoldirgan ulkan meros nima uchun zarurligi masalalariga to'xtalib, buni quyidagicha sharhlab berdilar: «Amir Temur avvalo qudratli davlat qo'rgan. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror ma'naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi. O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi

avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning «Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim» degan so'zlari buning yorqin dalilidir».

Biz mazkur tadqiqotda Amir Temur davrida milliy davlatchilikning rivojlanishining nazariy asoslarini imkon qadar tahlil qilishga intildik va tadqiqotlar olib borishda shunday xulosaga keldikki, bu davr davlatchiligida har bir soha aniq va puxta ishlab chiqilgan davlatchilik nazariyasi va talimoti orqali boshqarilgan. Shuningdek davlatchilik mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi, mutanosibligi, bir-biriga muvofiqligi, qonun ustivorligi, xalq va davlat birligi ta'minlangan. Amir Temur davri davlat boshkaruv asoslari nazariy jihatdan puxta ishlab chik'ilgan. Amir Temur ijtimoiy qarashlariga ko'ra, o'n ikkita ijtimoiy tabaqani muvofiqlashtirishni davlatni rivojlantirish kafolatlaridan biri hisoblangan. Davlat kam ta'minlangan, kambagal, yetim-yesirlarni kuchli ijtimoiy himoya qilgan. Shuningdek, mansab va unvonlarga tayinlash, eng past tabaqadan yukori tabaqagacha ularning ijtimoiy muhofazasini tashkillashtirish muhim masala deb qaralgan. Amir Temur davrida xodimlar tanlash masalasini hal qilishda avvalo axloqiy jihatlarga etibor karatilgan hamda mutaxassislarning kuchli malaka va bilimga ega bo'lishi shart deb qaralgan. Ularga maosh tayinlashda bir xillik yo'lidan voz kechilgan va davlat uchun katta nafi tekkan mutaxassislar ayricha taqdirlangan. Bu esa davlatchilik taraqqiyotiga kuchli ijobiy tasir ko'rsatgan.

«Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni deyarli 500-600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda. SHu bois, Prezidentimiz I.Karimov o'z asarlari va chiqishlarida «Sohibqiron tuzuklari» va «o'gitlari» ga tez-tez murojat qiladi, zero kelajagi buyuk davlat qurayotgan ekanmiz, o'tmishning ma'naviy tamoyillari bizni adolatli yo'llardan yuksak taraqqiyotga olib borishi, shubhasiz. Xuddi shu ma'noda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov yozuvchilar bilan bo'lgan suhbatida bu haqda zo'r mamnuniyat bilan quyidagilarni ta'kidladi: «Amir Temur tuzuklarini o'qisam, xudi bugungi zamonning katta-katta muommolariga javob topgandek bo'laman, shuning uchun strategiyani juda puxta o'ylash kerak. Balki otabobolarimiz qoldirgan merosdan foydalanib o'zimizga xos, o'zimizga mos strategiyani ishlab chiqish kerak bo'ladi».

Davlatchilikda muhim siyosiy figura bo'lgan davlat rahbariga alohida e'tibor berilib, u davlatni boshqarishga har tomonlama chuqur tayyorlangan. Rahbarning avvalo komil inson bo'lmog'i va o'zidagi mavjud qusurlardan holi bo'lmog'i, yani ahloqiy barkamolligi talab etilgan. U qonunchilikni, boshkaruv san'atini mukammal egallamog'i muhim masala deb hisoblangan va davlatni aniq va puxta ishlab chiqilgan qonunlar orqali boshqargan. Shuningdek, davlat rahbari kuchli xarakterga ega bo'lsa va ruhshunoslik sirlarini mukammal egallasagina muvaffaqiyat qozonish lozimligi uqtirilgan va davlat rahbarlari rahbarlik psixologiyasi chuqur o'rgatilgan. Rahbarning rahbarlik etikasiga qat'iy amal qilmog'i, jamiyat oldidagi javobgarlikni seza bilmog'i, atrofdagi, qo'sshi davlatlardagi voqyea-hodisalardan ogoh bo'lmog'i, jamiyat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ymog'i, davlatni va fuqarolarni har tomonlama himoya qila bilmog'i lozimligi uqtirilgan.

Amir Temur davrida davlat rahbaridek ma'suliyatli va sharaflı vazifaga alohida e'tibor berilishi va bu sohadagi Sohibqiron Amir Temurning siyosiy ta'limoti bizningcha bu davr davlatchiligi taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir va fikrimizcha bu masaladagi nazariy masalalarni bugungi davlatchiligimizga yana-da kengroq targib kilish kerak. Sovet davrida tarixni harakatlantiruvchi bosh kuch xalk deb ko'rsatilgan, to'g'ri xalq tarixda birlamchi kuch, ammo yirik siyosiy figuralar tarix gildiraklariga botiniy kuch bergani, ya'ni taraqqiyotning ko'pincha davlat raxbari faoliyatiga xam bogliq ekanligi xam sir ema- S. Sohibqironning davlat boshligi va umuman davlatchilik to'grisidagi siyosiy ta'limoti bizningcha davlat va jamiyat kurilish Akademiyasida, siyosat bilan bog'liq oliy o'kuv yurtlarida, rahbar hodimlarning malaka oshirish dargohlarida o'qitilishi kerakki, bizningcha bu ta'limot har bir rahbar va shaxsga o'z maksad va vazifalarini amalga oshirishda dastur vazifasini o'tashi mumkin.

Amir Temur davlatining tarakkiyotiga avvalo mukammal ishlab chiqilgan boshkaruv dasturlari katta tasir ko'rsatganki, biz uning boshkaruv faoliyatining kirralarini tadqiq etish asnosida ushbu xulosaga keldik. Amir Temurning davlat boshkaruv asoslari zamonlar sinovidan o'tgan, amaliyotda toblangan eng afzal

davlatchilikni tashkillashtirish shakllari bo'lib, u ko'plab davlatlar boshkaruvida andoza sifatida tanlangan.

Sohibqironning tanlagan qoida va tamoyillari mamlakat ichki potensialining va integrasiya jarayonlarning kuchayishi hamda kengayishiga olib kelgan. Bu davrda ma'muriy tizim strategik maqsadlar yo'lida tuzilgan. Bu ma'muriy tizimga davrning eng afzal tajribalari singdirilgan. Sohibqironning davlatni boshqaruv tamoyillari siyosiy iqtisodiy, irqiy, diniy, madaniy tafovutlariga karamay barcha uchun teng joriy etilgan va barchaning manfaati ko'zda tutilgan.

Ular jamiyatda kuchli bozor munosabatlari va taraqqiyotning kelib chiqishida bosh omillardan bo'ldi. Bizningcha, davlatning xususiy mulk va tadbirkorlikka keng yo'l ochib bergani, bu sohada fuqarolarni muxofaza etuvchi huquqiy asoslarning kuchaytirilishi davlatchilikning keyingi taraqqiyotiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Amir Temur davlatchiligida Qurultoy muhim ahamiyat kasb etgan. Qurultoyda davlatning eng muhim masalalari-urush va tinchlik, boshqaruvni takomillashtirish kabi muhim masalalar hal qilingan va bu siyosiy institut davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynagan. Teranroq qaralsa, Qurultoylar Amir Temur davlat boshqaruviga birdaniga kirib kelgan yangilik bo'lmay, ular asrlar osha faoliyat yuritib kelar va turkiy davlatchilikdagi xos xususiyatlardan edi. Sohibqiron Amir Temur bu sohadagi tarixiy tajribani-turkiy davlatchilik asoslarini takomillashtirdi va uni yana-da faollashtirib, uni davlat va jamiyatning muvofiqligini taminlovchi vositaga aylantirdi. Uning faoliyatidan shunday xulosa qilish mumkinki, boshkaruv xalq, jamoatchilik fikri asosida olib borilgan va bu esa mukammal davlatchilik asoslarining yaratilish'ida muhim omillardan bo'lgan.

Bizningcha Amir Temur keyin jamiyat hayotida Qurultoylarning huqukiy rolining pasayishi inson huquqlarining toptalishiga, parokandalikka olib kelgan sabablardan biri edi. Sohibkiron Amir Temur bu siyosiy institutni kuchaytirish orqali inson farovonligiga erishishni muhim ekanligini anglagan va uni faollashtirish orqali kuchli davlatchilik asoslarini yaratishga intilgan.

Uning diplomatiyasidagi yana bir o'ziga xos xususiyat shuki, u elchi tanlash masalasiga alohida e'tibor berdi va ularni millat va yurt ramzi deb tushundi. Shunga monand Amir Temur saroyidagi diplomatiya korpusi mukammal tuzilgan bo'lib, u muntazam ravishda faoliyat yuritgan va Amir Temur davlatida diplomatik munosabatlar shaxsan Amir Temur nomidan olib borilgan. Shunisi e'tiborliki, xalkaro uchrashuvlar, rasmiy marosimlar aniq va san'atkorona ishlab chikilgan qoidalar asosida olib borilgan. Bu qoidalarning yuksak me'moriy-badiiy yechim, etika, estetika yutuqlari bilan boyitilganligi ham davlatchilikda muhim ahamiyat kasb etgan.

So'nggi so'z o'rnida shuni takidlash joizki, Amir Temur va Temuriylar davrida boshqaruvning har bir sohasi puxta ishlab chiqilgan va u davlatchilik nazariyasini o'zida mujassam etadi. Bu siyosiy talimot bu davrdagi davlatchilik asoslarini kuchaytirishga, har bir jabhada Uyg'onish pallasiga o'tishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bizningcha Amir Temurning davlatchilik talimotini yana-da chuqur tadqiq etish, davlat boshqaruvining har bir sohasini yirik tadqiqotlarda ko'rib chiqish dolzarb masala bo'lib bu tarixiy meros bugungi davlatchilikda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlari

1. Каримов И.А.. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-том. Т., "Ўзбекистон", 1996 й.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-том. Т., "Ўзбекистон", 1996 й.
3. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш — давр талаби. Т., "Ўзбекистон", 1997 й.
4. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан курашимиз. 7-том Т., "Ўзбекистон", 1998 й.

II. Manbalar

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ус-саъдайн ва мажмаъ ул-баҳрайн (Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳли луғатларни тар их фанлари номзоди А.Ўринбоев тайёрлаган) Т., "Фан" 1963 й.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. (Нашрга тайёрловчи. Порсо Шамсиев) Т., "Юлдузча", 1989 й.
3. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. (Сўз боши, арабчадан таржима ва изоҳларни филология фанлари номзоди Убайдулло Ува-тов тайёрлаган) 1 —2-китоб. Т., "Меҳнат", 1992 й.
4. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т., "Ўзбекистон", 1996 й.
5. Рюи Гонсалес де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройи-га саёҳат кундалиги (1403—1406 йиллар). "Санъат" журнали, 1989 й. №9-12: 1990. №1-10.
6. Темур тузуклари (Форсча матндан Алихонтур Соғуний ва Ҳабибулла Кароматов таржимаси. Нашрга тайёрловчи, масъул муҳаррир ва сузбоши муаллифи Муҳаммад Али) Т., "Шарқ", 2005 й.
7. Хофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи Шохий). 1-жилд (Акад. Я.Ғ.Ғуломов таҳрири остида) Т., "Фан". 1966 й. II-жилд, 1969 й.
8. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. (Сўз боши, табдил, изоҳ-лар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмад, Ҳайдарбек Бобобеков) Т., "Шарқ". 1997 й.
9. Шарафхон ибн Шамсиддин Бидлиси. Шарафнаме (перевод, предисловие, примечания и приложения Е.И.Васильевой). М., Наука. 1970. Том II.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Абдураимов М.А. К изучению истории социально-экономической жизни государства Темуридов //Из истории развития общественно-экономической жизни в Ўзбекистане в XV—XVI вв. 1960. 5-32-бетлар.
2. Амир Темур жаҳон тарихида. "Шарқ". Т., 1996 й.
3. Ахмад Ашраф. Улуғбек Муҳаммад Тарағай. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1994 й.
4. Аҳмедов Б.А. Улуғбек. Т., "Ёш гвардия". 1989 й.
5. Аҳмедов Б.А. Узбек улуси. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1992 й.
6. Аҳмедов Б.А. Амир Темур. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1995 й.
7. Аҳмедов Б.А. Соҳибқирон Темур (узбек, рус ва инглиз тилла-рида). Т., 1996 й.
8. Аҳмедов Б.А. Амир Темур дарслари. Т., "Шарқ". 2000 й.
9. Аҳмедов Б.А., Мукминова Р.Г., Пугаченкова Г.А. Амир Темур. Т., 1999.
10. Акрамов А.М.. "Таварих-и гузиде нусратнаме" как источник по истории Ўзбекистана XV—начала XVI вв. // Общественные науки в Ўзбекистане. 1963. № 8. 54 —61-бетлар.
11. Алимов У.. Ўрта асрларда Мовароуннахрда боғдорчилик хўжа-лиги тарихи. Т., "Фан". 1984 й.
12. Асанов А.А.. Мечеть Биби-Ханым. Т., 1972. ПО — 160-бетлар.
13. Богданов М.Г.. Последние дни жизни Тамерлана. Его поход на Китай (пер. с персидского) // Туркестанские ведомости. 1872. №18.
14. Веселовский Н.И.. Надгробный памятник Темуру в Самарканде // Труды VII Всероссийского археологического съезда в Ярославле в 1887 г. М., 1894. Т. 2. 67—72-бетлар.
15. Герасимов М.М.. Восстановление лица по черепу (Современный и ископаемый человек)// Труды Института этнографии АН СССР. Нов. сер., М., 1955. Т. 28. 151 - 175-бетлар. Портрет Те-мура //Курьер ЮНЕСКО. М., 1972. №10.
16. Греков Б.Д., А.Ю. Якубовский. Золотая Орда и ее падение. М.; 1950. 261—428-бетлар
17. Греков Б.Д., А.Ю. Якубовский. Золотая Орда // Очерки истории Улуса Джучи в период сложения и расцвета XIII—XIV вв. М., 1941. 204-бет.
18. Греков Б.Д., А.Ю. Якубовский. Золотая Орда и ее падение. М., 1950. 479-бет.

19. Давидович Е.А.. Денежное хозяйство Средней Азии в XIII веке. М., Наука, 1972.
20. Давидович Е.А. Клады древних и средневековых монет Таджикистана. М., Наука, 1979.
21. Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии. М., Наука, 1983.
22. Давидович Е.А. Корпус золотых и серебряных монет Шейбанидов XVI в. М., Наука, 1992.
23. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. Т., "Фан". 1994 й.
24. Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Т., "Чўлпон". 1996 й.
25. Люсьен Карэн, А. Саидов. Амир Темур ва Франция. Т., "Адо-лат". 1996 й.
26. Люсьен Карэн. Амир Темур салтанати. Т., "Маънавият" 1999 й.
27. Массон М.Е. К истории монетного чекана Средней Азии периода правления Темура и Халил Султана // Общественные науки в Ўзбекистане. 1969. № 8—9. 51 — 63-бетлар.
28. Махмудов Н.. Из истории земельных отношений и налоговой политики темуридов // Известия АН Таджикской ССР. Сер. общ. наук, 1(32), Душанбе, 1960.
29. Махмудов Н.. Феодалная рента и налоги при Темуре и темуридах // Труды Таджикского государственного университета. Сер. ист. наук, вып. 2. Душанбе, 1967. 231 — 270-бетлар.
30. Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. (Форс тилидан Б.Аҳмедов, Н.Норкулов ва М.Ҳасанийлар таржимаси) Т., "Чўлпон". 1994 й.
31. Муминов И.М. Роль и место Амира Темура в истории Средней Азии в свете данных письменных источников. Т., Фан, 1968. 46-бет.
32. Муминов Иброҳим. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т., "Фан". 1968 й. 51-бет.
33. Мукминова Р.Г. Ремесло и торговля (при Темуре и темуридах) // История Самарканда. Т., 1969. Т. 1. 195 — 212-бетлар.
34. Мукминова Р.Г. Темур ва Улугбек даврида Мавороуннаҳрда ижтимоий-иқтисодий ҳаёт. Т., 1996 й. 132—137-бетлар.

35. Муқминова Р.Г. Шаҳрисабз вақти Амира Темур
//Шаҳри-сабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий
конференция маърузалари тезислари. Т., 2002 й.
36. Муҳаммад Али. Сарбадорлар. (Тарихий роман —
диалогия). Т., Фа-фур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
1992 й.
37. Муҳаммад Али. Ошиқ бўлмай Ҳақ дийдорин курса
бўлмас. Эссе ва мақолалар. Т., "Ўзбекистон". 1992 й.
38. Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. (Тарихий роман). 1-
китоб. Т., "Шарқ". 2003 й. 2-китоб. Т., "Шарқ". 2006.
39. Абдулахад Муҳаммаджонов. Темур ва Темурийлар
салтанати. Т., Қомуслар бош таҳририяти. 1996 й.
40. Пугаченкова Г.А. Рюи Гонсалес де Клавихо. Дневник
путешествия в Самарканд ко двору Темура. М., 1990 //Общественные
науки в Ўзбекистоне, 1991. №3. 51 —52-бетлар.
41. Нумизматика Ўзбекистона. Т., Фан, 1990.
42. Рахманалиев Р. Жизнеописание Тамерлана Великого.
Бишкек, Международное издательство "Туркестан", 1996.
43. Ртвеладзе Э.В. Термезский клад монет Темура и Халил
Султана // Общественные науки в Ўзбекистоне, 1969. № 8—9. 95 — 98-
бетлар.
44. Ртвеладзе Э.В. О походе Темура на Северный Кавказ
//Археолого-этнографический сборник. Грозный, 1976. Т.IV.
45. Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии. Т., Изд-во
Литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1987.
- 46.Э.В. Ртвеладзе, А.Х. Саидов. Амир Темур в зеркале мировой истории.
Библиография (отв. за выпуск Д.Нурматова). Париж, 1996. 28-бет.
- 47.Тўхтиев И. Қарши хазинаси. Т., "Фан ва турмуш" журнали №9, 1985 й.
- 48.И. Тўхтиев. Ўтмиш тангалари. "Совет Ўзбекистони" журнали,
49. 1987 й. №5.
- 50.63. Тўхтиев И.. Аналога не имеет. "Совет Ўзбекистони" журнали,
51. 1988 й. №11.
- 52.Тўхтиев И. Тангалар тилга кирганда. Рисола. "Фан". 1989 й.
- 53.. Тухтиев И. "Темур ва Темурийлар сулоласининг тангалари". Т.,
"Фан". 1992 й.
- 54.Тухтиев И. Амир Тимур даврида пул-молия тизими. 1996 й. Т.,
"Мозийдан садо" журнали, 7-бет.
- 55.Тухтиев И. "Куч — адолатдадир". "Саодат" журнали. 1996 й, №2.

56. Тухтиев И. Темурийлар сулоласининг тангалари каталоги, 1996 й. 140-бет.
57. Тухтиев И. Темур ва Темурийлар сулоласининг пул-молия сиё-сати ва уларнинг тангалари. Монография, форс тилида, Қум шаҳ-ри (Эрон). 1998 й.
58. Тухтиев И. Тошкент зарбхонаси. Буклет, узбек, рус ва инглиз тилларида, Т., 1998 й.
59. Тухтиев И. Ноёб дафина. Археология институтининг мақолалар тўплами, 2000 й. Самарқанд.
60. Тухтиев И. Были ли монеты у Джунгарского ханства? Сборник статей "Нумизматика в Центральной Азии". Т., 2002.
61. Умняков И.И. Из истории международных отношений Средней Азии с Западной Европой в начале XV в. //Тезисы I конференции ученых вузов и научных учреждений города Самарканда. Самарканд, 1958. 25 — 27-бетлар.
62. Умняков И.И. Внешнеполитические связи Самарканда с государствами Западной Европы // История Самарканда. 1969. Т.1, 173— 195-бетлар.
63. Файзиев Т. Мирзо Улуғбек авлодлари. Т., "Ёзувчи". 1994 й.
64. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. "Фан". 1995 й.
65. Якубовский А.Ю. Из истории Золотой Орды //Вопросы истории. 1947. №2. 30—45-бетлар.
66. Якубовский А.Ю.. Средняя Азия в XIII—XV вв. // Очерки истории СССР. Период феодализма. 1953, 648—679-бетлар.